

№ 2 (18) 2026

ISSN 2181-1822

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

ILMIY-AMALIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY VA SIYOSIY-HUQUQIY JURNAL

**KUCH – BILIMDA,
SHARAF –
A'LO XIZMATDA!**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

AXBOROTNOMASI

№ 2 (18) 2026

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

Ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy va
siyosiy-huquqiy jurnal

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida,
lotin, kirill yozuvida chop etiladi.
Maqolalarda keltirilgan iqtiboslar,
dalillar, raqamlar va ma'lumotlarning
aniqligi uchun muallif javobgardir.
Jurnaldan ko'chirib olingan manba
ko'rsatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka
oshirish instituti Axborotnomasi O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 20-mayda №1630-sonli guvohnoma bilan
ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi O'zbekiston
Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
“Malaka oshirish institutining Axborotnomasi”
ilmiy-amaliy jurnali 2023-yil 15-iyunda
OAK Rayosatining 339/6-son hamda
2024-yil 28-iyundagi OAK Rayosatining 356/5-son
qarorlariga asosan yuridik va tarix, siyosiy va
falsafa, pedagogika va texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc) ilmiy
darajasiga talabgorlarning dissertatsiya
ishlari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qiladi.

Muassis:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

Bosh muharrir:

Olimjon AXMEDOV

Nashr uchun mas'ul:

Bahodir JOVLIYEV

Jamoatchilik

Kengashi tarkibi:

Nuriddin NORMATOV
Bahodir MATLYUBOV
Diyorbek SATTAROV
Umidbek NURULLAYEV

Hay'at a'zolari:

Olimjon AHMEDOV
Ulug'bek RASULEV
Karim NORMATOV
Jo'raboy TOSHQULOV
Farhod XATAMOV
Muzaffar TOJIBOYEV
Mehmonali SUVANQULOV
Erkinjon MARUPOV

Tahririyat:

Mas'ul muharrir:

Karim NORMATOV

Musahhih:

Nurafshon XATAMOVA

Sahifalovchi-dizayner:

Zafar RO'ZIYEV

Bosishga ruxsat etildi: 1.06.2026.

Buyurtma № 181

Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Shartli b. t.-7,8.

Adadi 100 nusxada chop etildi.

100213, Toshkent shahar, Bektemir tumani,
H.Boyqaro ko'chasi, 27a-uy.



MUNDARIJA

MUHARRIR MINBARI

Olimjon AXMEDOV.

XALQARO TAJRIBA ALMASHINUV -
MUTAXASSISLAR BILIM VA MAHORATINI
TOBLASHDA MUHIM VOSITA..... 6

SIYOSIY FANLAR

Farxod XATAMOV.

O'ZBEKISTONNING INSON HUQUQLARI
BO'YICHA MILLIY INSTITUTLARI FAOLIYATI..... 8

Baxtiyor UMURZOQOV.

TINGLOVCHI VA KURSANTLARDA
VATANPARVARLIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
MEXANIZMLARI..... 12

YURIDIK FANLAR

Mexmonali SUVANKULOV.

FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQLARINI TA'MINLASHDA
ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA
MAHALLA YETTILIGI HAMKORLIGINING
HUQUQIY MEXANIZMLARI..... 15

Firuz ABDUNAZAROV.

HARBIY XIZMATCHILARNI
(XODIMLARNI) JAMOAT TARTIBINI
SAQLASH XIZMATIGA TAYYORLASHGA OID
ILMIY-NAZARIY QARASHLAR..... 19

Jasur XAMRAYEV.

KRIPTOAKTIVLARNI
JINOYAT-PROTSESSUAL TARTIBDA
RASMIYLASHTIRISH MASALALARI..... 23

Дилшода ГУЛИМОВА.

ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ
«ЦИФРОВОЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВО»
В ДОКТРИНЕ МЕЖДУНАРОДНОГО
УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА..... 26

KIBERXAVFSIZLIK

Muhammadrasul UMMATOV.

KOMPYUTER AXBOROTIGA
NOQONUNIY KIRISH JINOYATINI
TERGOV QILISH USULLARI 29

PEDAGOGIKA FANLARI

Ismoil SAYDOQULOV.

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGINING AKADEMIK
LITSEYLARIDA YOSHLAR MA'NAVİY
TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI 33

To'lg'in G'OZIBEKOV.

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING
TA'LIM-TARBIYADA
PSIXOLOGIK OMILLARNI
AMALGA OSHIRISH TARTIBI 33

Yoshin HAKIMOV.

HARBIY KONTENT JOZIBADORLIGIDA
SARLAVHANING ROLI..... 41

Dildoraxon GANIYEVA.

Sayyoraxon TO'LANOVA.
RANG KOMPONENTLI SO'Z BIRIKMALARINING
LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI:
BADIY MATNNING AMALIY TAHLILI 44

Zarif BEKMURADOV.

RATSIONAL TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
VA METODIK ASOSLARI 47



Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha uzoqni ko'zlab strategik maqsadlar asosida olib borilayotgan barcha sohalardagi islohotlar samaradorligi va amaliy natijalarida ham butun jamiyatimiz a'zolarining Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishdek ulkan orzu-maqсад yo'lidagi tinimiz izlanishi va mushtarak harakati asos bo'lmoqda.



XALQARO TAJRIBA ALMASHINUV – MUTAXASSISLAR BILIM VA MAHORATINI TOBLASHDA MUHIM VOSITA

Taraqqiyot – yangi bilim va tajribalardan quvvat oladi. Ilg'or ilm va mahorat esa maqsadli harakat, izlanishni talab etadi.

Shu ma'noda, mamlakatimiz taraqqiyotidagi zamonaviy tendensiyalar Ichki ishlar tizimi xodimlaridan ham yangi bilim va mahorat, kasbga professional yondashuv hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashda har qanday xavf-xatarni oldindan aniqlab, tezkor va aniq harakat qilish talabini qo'yimoqda. Zero, huquqbuzarlik yoki qonunbuzilishini bartaraf etishdan ko'ra, ushbu salbiy holatning oldini olish ming bor afzaldir.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti hamda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) o'rtasidagi uzviy aloqalari shu o'rinda muhim



ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, mazkur hamkorlik rishtalari orqali ikki mamlakat ichki ishlar tizimi xodimlarining o'zaro tajriba almashinishi va global jinoyatchilikka qarshi kurashda yangi va innovatsion vositalarni tatbiq etish bo'yicha o'tkazilayotgan muloqot uchrashuvlar o'z samarasini bermoqda.

«O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutida simulyatsiyalashtirilgan o'quv markazini tashkil etish bo'yicha salohiyatni oshirish» loyihasi doirasida Koreya Respublikasidan tashrif buyurgan professor Park Jae-Poong rahbarligidagi delegatsiya vakillari bilan



o'tkazilgan uchrashuvlar ham o'zaro tajriba almashishda muhim voqea bo'ldi. Tadbirlarda ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bosh reja yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha oraliq hisobotlar taqdim etildi.

Tadbirda sohaviy mutaxassislar hamda loyiha ishtirokchilari qatnashib, taqdim etilgan hisobot doirasida ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari, simulyatsiyalashtirilgan o'quv muhitini joriy etish istiqbollari va mazkur bosh rejaning asosiy yo'nalishlari yuzasidan atroflicha muhokamalar o'tkazildi.

Albatta, tinglovchilarning auditoriyalarda olgan nazariy bilimlarini jinoyatchilikka qarshi kurashda qo'llaniladigan zamonaviy vositalari bilan tanishib, amaliyotda sinab



ko'rishi mutaxassislar mahoratini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Shunga ko'ra, uchrashuv davomida bosh reja-ni yanada takomillashtirish, uning amaliy samaradorligini oshirish hamda loyihaning keyingi bosqichlarini yanada samarali tashkil etish masalalari yuzasidan mutaxassislarning tegishli taklif hamda tavsiyalar olindi.

E'tiborlisi, Koreya Respublikasi delegatsiyasi a'zolari institutimizning ta'lim jarayoni va tinglovchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham yaqindan tanishgan holda ta'lim dargohi moddiy-texnika bazasini rivojlantirish borasidagi yangi loyihalar samarasiga va professor-o'qituvchilar jamoasining ilmiy hamda amaliy mahoratiga yuqori baho berdi. Shuningdek, navbatdagi bitiruvchilarni taqdirlashga bag'ishlangan tantanali tadbirdan ishtirok etib o'ziga xos boy taassurot olganligini bildirgani ahamiyatli bo'ldi.

Mazkur hamkorlik aloqalari ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda simulyatsiyalashtirilgan o'quv texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi aniq.

**Olimjon
Tursunboyevich
AXMEDOV,**

*Malaka oshirish instituti boshlig'i,
polkovnik*



Farxod XATAMOV,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası boshlig'i, s.f.d. (DSc),
professor, podpolkovnik*

O'ZBEKISTONNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY INSTITUTLARI FAOLIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlarning o'rni va ularning faoliyat samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning faoliyati, ularning inson huquqlarini ta'minlashdagi roli hamda xalqaro standartlarga mosligi o'rganilgan. Maqolada milliy institutlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *inson huquqlari, milliy institutlar, Ombudsman, huquqni muhofaza qilish, xalqaro standartlar, inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolik jamiyati.*

Аннотация: в данной статье анализируются роль и эффективность деятельности национальных институтов по защите прав человека в Узбекистане. В рамках исследования рассматривается деятельность Омбудсмена, Национального центра по правам человека и других правозащитных структур, их роль в обеспечении прав человека и соответствие международным стандартам. В статье разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию деятельности национальных институтов.

Ключевые слова: права человека, национальные институты, Омбудсман, защита прав, международные стандарты, правозащитная деятельность, гражданское общество.

Annotation: this article analyzes the role and effectiveness of national human rights institutions in Uzbekistan. The study examines the activities of the Ombudsman, the National Human Rights Centre, and other human rights organizations, their role in ensuring human rights, and their compliance with international standards. The article develops proposals and recommendations for further improving the activities of these national institutions.

Key words: *human rights, national institutions, Ombudsman, human rights protection, international standards, human rights advocacy, civil society.*

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash demokratik davlat qurishning eng muhim mezoni hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyatini takomillashtirish hamda ularning rolini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar (IHMI) davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlarini himoya qilish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ko'priq vazifasini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro huquqning umumiy e'tirof etilgan prinsiplari va normalari, xususan, Parij prinsiplari asosida inson huquqlari bo'yicha milliy tizim bosqichma-bosqich shakllantirildi. Bugungi kunda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Bola huquqlari bo'yicha vakil va boshqa institutlar o'z vakolatlar doirasida fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash, qonunchilikni monitoring qilish hamda xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim natijalarga

erishmoqda.

Hozirgi kunga kelib O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 70 dan ortiq asosiy hujjatga qo'shilgan, BMT tomonidan qabul qilingan 10 ta xalqaro shartnomaning bevosita ishtirokchisidir. Milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga xalqaro standartlarni tizimli va bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o'z modeli, insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringi milliy tizimi shakllantirildi¹.

Zotan, bizning jamiyatimizda inson sha'ni, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlar asosi jamiyat manfaatlar va fuqarolik jamiyati institutlari, qolaversa, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi siyosiy-huquqiy institutlari faoliyat tizimi tamoyilidan kelib chiqadi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish borasida milliy qonunchiligimiz bilan belgilangan bir qator milliy institutlar, tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Jamiyatimizda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga bir qator milliy institutlar, xususan, O'zbekistonda inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi qator davlat tashkilotlari, xususan,

¹ Д.Базарова. "Инсон кадр-киммати – энг олий кадрият" махсус ўқув модули. "Фуқаролик жамияти" умумназарий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий журнал. 2020, № 2 сон. 48-49 б. Б. 49.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Prezident huzuridagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman), Bola huquqlari bo'yicha ombudsman instituti va bundan tashqari, inson huquqlarini himoya qiluvchi ko'plab NNT faoliyat olib bormoqda.

Ular faoliyati inson huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan va doimiy ravishda takomillashib boradi.

O'zbekistondagi mazkur tizimda bugungi kunda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar munosib o'z o'rnini topdi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov tizimiga kiradi. Ularning faoliyati biz oldingi mavzularda ko'rib chiqqan inson huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan va doimiy ravishda takomillashib bormoqda².

Zero, yangi tahrirdagi Asosiy Qonunimizning 56-moddasida Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashishi, qolaversa, davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab qo'yilganligi ham milliy institutlar faoliyati va rivojlanib borishi mezonlarining huquqiy asosi mustahkamlanganligidan nishona, deyish mumkin.

Inson huquqlarini va qonun ustuvorligini himoya qilish, fuqarolar huquqiy madaniyatini takomillashtirish maqsadini ko'zlagan davlat va NNT tomonidan olib borilayotgan targ'ibot ishlari bir muncha darajada o'z natijasini berayotganligini ushbu tashkilotlarga aholi tomonidan kelayotgan murojaatlar soni oshib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin.

O'zbekiston xalqaro taraqqiyotning ilg'or an'analariidan kelib chiqib, inson huquqlarini himoya qilishda o'z sodiqligini ochiq bildirgani holda o'z hududida ularga rioya etish majburiyatini oldi hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini ishlab chiqdi. Mazkur mexanizmning asosiy elementi bo'lgan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti tashkil etildi³.

Ombudsman so'zi shved tilidan olingan bo'lib, "xalq himoyachisi" degan ma'noni anglatadi.

Ombudsman – inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan (yoki tayinlanadigan) mansabdor shaxs. Ular inson huquqlarini turli ma'muriy organlar tajovuzidan saqlashni maqsad qilib qo'yadi. Ular fuqarolarning murojaati yoki o'z tashabbusi bilan tekshiruv ishlarini yuritadi. Huquq buzilishlarini aniqlagan vaqtda, shu huquq buzilishi aybdori bo'lgan organga qonunsiz hujjat yoki harakatlarini bekor qilishini taklif etadi. Agar taklif bajarilmasa, u holda sudga yoki parlamentga murojaat qiladi⁴.

Ombudsman faoliyati bo'yicha jahon tarixiga nazar tashlansa, 1809-yilda Shvetsiya Qirolligi konstitutsiyasiga binoan inson huquqlari bo'yicha Vakil Ombudsman instituti joriy etildi. Mazkur konstitutsiyaning 96-bo'limiga muvofiq, Ombudsman institutiga adolat va boshqaruvni nazorat qilish vakolatlari berilgan.

Finlyandiyada yangi Respublika hukumati o'rnatilgach, 1919-yilda "Parlament ombudsmani", "Vakillik palatasining a'zosi" nomi ostida inson huquqlari bo'yicha Vakil instituti joriy etildi va bu sohada Finlyandiya dunyodagi 2-mamlakat sifatida tan olindi. Inson huquqlari bo'yicha vakil shved ko'rinishiga asoslangan bo'lib, unga mamlakatning boshqa hokimiyat idoralari va sud tomonidan qonunlari ijrosini nazorat qilish bo'yicha keng ko'lamdagi vakolatlar berilgan edi⁵.

Ombudsman instituti 1975-yilda Portugaliya tomonidan, 1978-yilda esa Ispaniya davlati tomonidan qabul qilindi. Shu tariqa mazkur institut dunyoning 120 dan ortiq mamlakati tomonidan tan olindi. Yevropa Ittifoqi 1995-yil 27-sentabrdan boshlab o'zining Ombudsman institutiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2001-yil 14-iyundagi 55/258-sonli hamda 2001-yil 24-dekabrda 56/253-sonli rezolyutsiyalariga muvofiq BMT Ombudsmanining kotibiyati ta'sis etildi.

O'zbekistondagi mazkur institut, xususan, Parlament huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) instituti O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995-yil 6-mayda Oliy Majlis qaroriga binoan uning huzurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishga ko'maklashish uchun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish Komissiyasi tashkil etildi. Vakil va Komissiya faoliyati Oliy Majlisning 1995-yil 29-avgust Qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solingan.

Xususan, 1997-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi

2 Inson huquqlari: darslik /A.R.Mo'minov, M.A.Tillabayev; mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Adolat, 2013. 427-b.

3 Сагдуллаева Д.Ш. Жамият демократлашуви шароитида фуқаролар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари. Фалс.фан.ном. ...дисс. – Т., 2010. Б. 115.

4 Конституциявий ҳуқуқ (изоҳли лугат). А.Азизхўжаев, О.Хусанов, Х.Азизов. –Т.: "Академия". 2001. Б. 75.

5 А.А.Сарабеков. "Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини халқаро миқёсда ҳимоя қилиш". Рисола – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. Б. 79.

Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida”gi Qonun qabul qilinadi. Ushbu qonun parlament islohotlarining amalga oshirilishi munosabati bilan 2004-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonun inson huquqlari bo'yicha Vakilning huquqiy holatini, faoliyat sohasi va tamoyillarini, shuningdek, lavozimga saylanish va ishdan bo'shatilish tartibini, fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqishdagi vakolatlari hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoyalashdagi huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi⁶.

Muhim bir jihati shundaki, Ombudsman instituti davlat organlari va jamiyat a'zolari o'rtasida mustahkam ijtimoiy-huquqiy ko'prik vazifasini o'tab beradi.

Ombudsmanning faoliyati, vakolati hamda uning huquqiy maqomi “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)” to'g'risidagi Qonunda o'z ahamiyatini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo'lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan. Vakil (ombudsman) instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'z faoliyati davomida jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ana shu asosiy prinsiplarini taraqqiy ettirish va hayotga tatbiq etilishi uchun xizmat qiladi⁷.

O'z o'rnida, Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) fuqarolar huquqlarining beg'araz va insonparvar himoyachisidir: u inson huquqlari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi, ayrim tashkilotlar va mansabdor shaxslar yo'l qo'ygan xatoliklarni tuzatish yuzasidan tadbirlar tavsiya qiladi, fuqarolarning huquqlari tiklanishiga yordamlashib, inson huquqlarining jiddiy ravishda buzilishiga sababchi bo'lgan shaxslarni qonunga binoan javobgarlikka tortish to'g'risida tavsiya qilishga ham haqlidir⁸.

Bundan shunday fikrni keltirish mumkinki, inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili davlat va nohukumat tashkilotlarining o'z maqsadi – inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo'lida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyati rivojlanib borishini tizimli o'rganish hamda ularni fuqarolik

jamiyatining haqiqiy a'zolariga aylanishlarini nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvatlashning institutlashgan ba'zasi – siyosiy-huquqiy tashkiloti, uyushmasi vazifasini o'tab beradi.

Vakilning jamiyatda tashviqot olib borish faoliyati ham o'ziga xos jihatlarga ega. U jamiyat a'zolari – jamoaning huquqlari va Ombudsmanning faoliyati, uning inson huquqlarini himoya qilish tizimidagi o'rni va ahamiyati bilan tanishtirib borish bilan bir qatorda, jamiyat va insonlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishni ta'minlashga katta hissa qo'shishi muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, inson huquqlariga rioya qilishning xususiyatlari to'g'risida xalqaro va respublika ilmiy-amaliy tadbirlari, konferensiya va forumlar, seminarlar tashkil qilish va o'tkazishga tashabbuskor va mas'ulligi bilan ajralib turishi bugungi yangi islohotlar jarayonida mamlakatda inson huquqlari bo'yicha vakilning zaruriy va zamonaviy faoliyat mezonlariga aylanib boradi.

Muhim bir jihati shundaki, bugun Ombudsman instituti davlat organlari va jamiyat a'zolari o'rtasida mustahkam ijtimoiy-huquqiy ko'prik vazifasini o'tab beradi, bu ko'prik qanchalik mustahkamligi, jamiyatda inson huquqlarining ta'minlanish sifati va samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Zero, demokratiyaning inson huquq va erkinliklarining ustunligi kabi muhim belgisining haqiqiy tafsiloti va mazmunini aniqlash, fuqarolar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish Ombudsmanning vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda inson huquqlariga rioya qilish va himoyalash masalalari bilan shug'ullanuvchi bir necha idoralar mavjud. Ulardan ikkitasi qonun chiqaruvchi, bittasi ijroiya va yana biri nohukumat organidir. Masalan, 1996-yilda esa Oliy Majlis huzurida amaldagi qonunchilik monitoringi instituti tashkil qilindi. O'sha yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra Respublika inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz tuzildi. Ya'ni Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan⁹.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi xalqaro huquqning inson huquqlari va erkinliklari sohasida umume'tirof etilgan prinsiplari va me'yorlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalarini va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha davlatga qarashli tahlil, maslahat, idoralararo muvofiqlashtirish organi hisoblanadi.

Ushbu markaz inson huquqlarini himoya qilishda aloqador bo'lgan barcha davlat va nodavlat

6 Саттаров А. Омбудсман – ҳуқуқ ҳимоячиси (хорижий ва миллий тажриба). –Т., 2000. 34-бет.

7 Олий Мажлис Инсон ҳуқуқлари бўйича вакилининг (омбудсманнинг) 2003 йилги фаолияти тўғрисида ҳисобот. –Т., 2004, 5-бет.

8 Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази расмий веб-сайти: <http://insonhuquqlari.uz/uz/menu/natsionalnye-instituty>.

9 Инсон ҳуқуқлари миллий маркази расмий сайти: <https://insonhuquqlari.uz/uz/menu/zadachi-i-funktsii->.

organlarining faoliyatini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan.

Markazning asosiy vazifalariga inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, ushbu sohadagi O'zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish holatini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish bo'yicha milliy ma'ruzalar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha takliflar tayyorlash, inson huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlarga maslahat berish va ularga amaliy ko'maklashish va boshqalar kiradi¹⁰.

Markazning asosiy maqsadi esa – ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari va erkinliklarini himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, jumladan: inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish; huquqiy yordam ko'rsatish va inson huquqlarini sud yo'li bilan himoya qilish; inson huquqlarini suddan tashqari himoya qilish tizimini yaratish; turli toifadagi shaxslar huquqini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlarining huquqlarini himoya qilish, qolaversa, nohukumat huquqni himoya etish tashkilotlari faoliyatlarining samarali shakllarini rivojlantirish; inson huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida axborot olish

erkinligini ta'minlash; ijro hokimiyati doirasidagi vazirliklar, qo'mitalar, idoralar va muassasalarni inson huquqlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va hokazo. Markaz o'z faoliyatini amalga oshirishda qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash va fuqarolarning huquqiy himoyasini ta'minlash yo'lida tizimli va bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy institutlar nafaqat fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash, balki qonunchilik hujjatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda muhim subyektga aylandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining samaradorligi ularning mustaqilligi, davlat organlari bilan hamkorlik darajasi hamda aholining ushbu institutlarga bo'lgan ishonchi bilan bevosita bog'liq. Biroq rivojlanish jarayoni o'z oldiga yangi vazifalarni ham qo'yimoqda: xususan, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini soddalashtirish, institutlarning hududiy bo'linmalarini kuchaytirish hamda inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimini yanada takomillashtirish jamiyatda demokratik qadriyatlarni qaror toptirishning asosiy omilidir. Milliy institutlarning faoliyatini kuchaytirish – bu shunchaki tashkiliy masala emas, balki mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning zaruriy shartidir.

¹⁰ Инсон ҳуқуқлари миллий маркази расмий сайти: <https://insonhuquqlari.uz/uz/menu/zadachi-i-funktsii->.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д.Базарова. “Инсон қадр-қиммати – энг олий қадрият” махсус ўқув модули. “Фуқаролик жамияти” умум назарий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий журнал. 2020, № 2 сон. 48-49 б. Б. 49.
2. Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. Масъул муҳаррир ва муаллифлар жамоасининг раҳбари Б.Мустафоев. – Т.: “Ўзбекистон”, 2006. 584 б. Б. 202.
3. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази расмий веб-сайти: <http://insonhuquqlari.uz/uz/menu/natsionalnye-instituty>.
4. Инсон ҳуқуқлари миллий маркази расмий сайти: <https://insonhuquqlari.uz/uz/menu/zadachi-i-funktsii>.
5. Инсон ҳуқуқлари миллий маркази расмий сайти: <https://insonhuquqlari.uz/uz/menu/zadachi-i-funktsii->.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 09.08.2021 йилдаги ПФ-6275-сон. <https://lex.uz/docs/5570490>.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2024-йил 29-февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг “Бола ҳуқуқлари бўйича вакили (Болалар омбудсмани) тўғрисида”ги ЎРҚ-917-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/6823379>.

Baxtiyor UMURZOQOV,

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Jangovar tayyorgarlik sikli

katta o'qituvchisi, podpolkovnik

TINGLOVCHI VA KURSANTLARDA VATANPARVARLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim muassasalarida o'quvchilarda vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, uning yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotidagi o'rni hamda globallashuv sharoitidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, AQSh, Singapur, Finlyandiya va Germaniya davlatlarining ilg'or tajribalari o'rganilib, ular asosida milliy ta'lim tizimi uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, kompetensiya, yoshlar, milliy qadriyatlar, fuqarolik ta'limi, mafkuraviy tahdidlar, pedagogik mexanizmlar.*

Аннотация: в данной статье анализируются педагогические механизмы формирования патриотических компетенций у учащихся в образовательных учреждениях. Раскрывается содержание патриотического воспитания, его роль в духовно-нравственном развитии молодежи, а также значение в условиях глобализации. Кроме того, изучен передовой опыт США, Сингапура, Финляндии и Германии, на основе которого разработаны практические рекомендации для совершенствования национальной системы образования.

Ключевые слова: *патриотизм, компетенции, молодежь, национальные ценности, гражданское образование, идеологические угрозы, педагогические механизмы.*

Annotation: this article examines the pedagogical mechanisms for developing patriotic competencies among students in educational institutions. It highlights the essence of patriotic education, its role in the moral and spiritual development of youth, and its significance in the context of globalization. Furthermore, the advanced practices of the USA, Singapore, Finland, and Germany are analyzed, and based on these experiences, practical recommendations are proposed to improve the national education system.

Key words: *patriotism, competencies, youth, national values, civic education, ideological threats, pedagogical mechanisms.*

Kirish. Vatanparvarlik inson shaxsining fazilati sifatida o'z Vatanga muhabbat, sadoqat, Vatanga xizmat qilishga tayyor bo'lish, o'z ona yurtiga, tiliga, madaniyatiga, xalqining eng yaxshi an'alariga sadoqatda namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi umuminsoniy qadriyatlar (hayot, salomatlik, insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, shaxsiy huquq va erkinliklari) ga asoslangan umumiy fuqarolik madaniyati va umumiy fuqarolik ta'limining bir qismidir. O'zbekiston vatanparvarlarini, huquqiy demokratik davlat fuqarolarini, fuqarolik jamiyatida ijtimoiylashuvga qodir, shaxs huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan, yuksak ma'naviyatli, milliy va diniy bag'rikeng, boshqa vatanparvarlikka nisbatan hurmatli munosabatda bo'lgan shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan.

Xalqimiz tabiatida tarixga hurmat, ajdodlarimiz merosiga ehtirom, ularning boy ma'naviy mulkini e'zozlash xususiyati, o'ziga xos an'analar bilan tarkib toptirildi. Vatanimizning o'nlab allomalari faxr-iftixorimiz manbai bo'lgan ulug' ajdodlarimiz ruhini e'zozlab, ulkan obidalar, memorial koshonalar, haykallar barpo etildi, maxsus anjumanlar o'tkazilishi, bag'ishlov kitoblari nashr etilishi yo'lga qo'yildi. Bu esa aholining xususan,

yoshlarning chin vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish imkonini kengaytirdi. Bugungi globallashuv jarayonlari avj olgan davrda mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarning ta'lim-tarbiyasini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini o'stirish, Vatanimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi avlodni shakllantirish masalalariga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Sababi millatparvar, vatanparvar, umuminsoniy ma'naviy fazilatlarga ega avlod har qanday jamiyat yoki davlatning kelajagi hisoblanadi. Vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o'z so'ziga sodiqligidir. Agar inson bolalik chog'idan o'z xalqiga, millatiga va uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilinmasa, unda vatanparvarlik hissi aslo bo'lmaydi. Vatan hissi insonga Vatandan olisda bo'lganida yaqqol seziladi. Turli sabablar bilan o'zga yurtlarda yashagan ko'plab vatandoshlarimizning hayoti ayanchli va qayg'uli kechgani bizga tarixdan ma'lum. Vatan Ona kabi aziz va mukarram qarashdirki, insonga baxt-u iqbol beradigan zamin hisoblanadi. Abdulla Avloniy aytganlaridek: "Har bilan kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini

shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini ortiq suyar. Biz Turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimoslar shimol taraflar, eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, turonlik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi".

Insondagi eng oliy tuyg'u – Vatan tuyg'usidir. O'zi tug'ilib o'sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o'zga yurt tabiatidan o'z yurti tabiatichalik zavq ololmaydigan, hattoki, mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan, butun aql-zakovati, qalb qo'ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go'zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg'u namoyon bo'ladi [1].

Metodologiya va adabiyotlar. Ota-bobolarimiz, ulug' ajdodlarimiz va allomalarimiz Vatanga sadoqatlarini, o'z yurtlariga muhabbatlarini ifoda etish borasida tarixda ajoyib namunalarini bizga meros qoldirishgan. Masalan, ulardan biz ko'proq Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abulays Samarqandiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o'zlarining taxalluslarini kindik qonlari to'kilgan yurt bilan bog'laganliklari, ularning nomini dunyoga ma'lum-u mashhur qilganliklarini yaxshi anglaymiz. Ularning yozib qoldirgan boy merosini o'qir ekansiz, benihoya qalbingizni vatanparvarlik his-tuyg'ularini his qilishga undaydi [2]. Shu tufayli, biz ham ajdodlarimizning bosib o'tgan yo'llaridan yurmog'imiz, muxtasar aytganda, har birimiz Vatanimiz dovrug'ini dunyoga tanitish uchun barcha imkoniyatlarimizni ishga solmog'imiz darkor.

Muhokama. Dunyoda va yon-atrofimizda xalqaro ziddiyatlarning keskinlashuv jarayoni davom etayotgani, turli hududlarida qonli mojarolar, qurolli to'qnashuvlar yuz berayotgani, yangi ziddiyat o'choqlari yuzaga kelayotgani bizni har doim har qanday vaziyat va holatlarga munosib zarba berishga shay turishimizni ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mafkuraviy tahdidlar o'ta xatarli va nozik tus olgan sharoitda aholi, ayniqsa, yoshlar ichida g'oyaviy tarbiyaga yo'naltirilgan targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yishi zarurdir. Ushbu targ'ibot ishlarini quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi dolzarbdir:

– g'arazli maqsadlarda amalga oshirilayotgan g'oyaviy ta'sirlarga qarshi har bir fuqaroda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, mavjud ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni to'g'ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish;

– kuchayib borayotgan mafkuraviy tahdidlarga nisbatan doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rgatish;

– fuqarolarning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat, or-nomus, uyat va andisha kabi axloqiy tuyg'u va tushunchalarning ma'no-mazmunini chuqur anglab yetishiga va amal

qilishiga erishish;

– beparvolik va loqaydlikning oldini olish, hushyorlik va jonkuyarlikni tarbiyalash, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg'usini kamol toptirish [3].

So'nggi yillarda jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bolalar va yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ulari, afsuski, vatanparvarlik ongiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari isloh qilinib, sovet vatanparvarligi barbod bo'lishi bilan zamonaviy yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ulari, ma'naviy-axloqiy madaniyat juda katta kamomadga aylandi. Yoshlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy-axloqiy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni idrok etishga tayyor emas edi. Bugungi kunda chaqiruv yoshidagi o'quvchilarning salmoqli qismi, jumladan, o'rta maktab o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'ulari, axloqiy tamoyillar va xulq-atvor madaniyati deformatsiyalangan. Yoshlarning bu toifasi uchun beadablik, nigilizm, shafqatsizlik, loqaydlik, tarixiy o'tmishni hurmat qilmaslik, mas'uliyatsizlik, axloqsizlik, ma'naviy-axloqiy yo'l-yo'riqlarni yo'qotish kabi g'ayriinsoniy fazilatlar namoyon bo'ladi. Bularning barchasi maktab o'quvchilarini vatanparvarlik, axloqiy tarbiyalashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirda yoshlarning aksariyat qismi armiyada xizmat qilishni istamaydi va muddatli harbiy xizmatdan qochishadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarida bolalar va yoshlar bilan harbiy-vatanparvarlik ishlari ancha susaygan. Umumta'lim maktablari bitiruvchilari va harbiy yoshdagi o'quvchilarning harbiy xizmatga qiziqishi susaygan. Harbiy xizmat nufuzining tushib ketishi Vatan himoyasiga xavf tug'dirmoqda. Bu salbiy hodisaning barchasi ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha aniq o'ylangan, ijtimoiy yo'naltirilgan va maqsadli dasturning yo'qligi, tarbiyaviy ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liq [4]. Sohadagi mavjud bo'shliqlarni chet el tajribalari asosida to'ldirishga muvaffaq bo'lish mumkin. Misol uchun, AQShning **Junior Reserve Officers Training Corps (JROTC)** dasturi o'rta maktablar uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Dastur 1916-yilda yaratilgan bo'lib, yetakchilik mahorati, fuqarolik burchlari va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan. Bu dasturda ishtirok etish yoshlarda intizomlilik va jamoatchilikka xizmat qilish madaniyatini uyg'otishga qaratilgan. Dastur ta'lim, sport va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olib, bu jarayonda harbiy tashkilotlar o'rtasidagi sheriklik muhim o'rin tutadi. Ushbu dasturga asoslangan milliy dasturimizni yaratish, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytirishda, mamlakatimizdagi huquq tizimi, ijtimoiy odatlar hamda qadriyatlarga itoatkorlik ruhini kamol toptirish hamda ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishda ulkan ahamiyat kasb etadi [5].

Garchi primitiv bo'lsa-da, Singapurning Milliy tarbiya dasturi (National Education) to'g'risida so'z yuritish o'rinlidir. Milliy tarbiya dasturi 1997-yilda yo'lga qo'yilgan bo'lib, yoshlarda milliy birlik, Vatanga sadoqat va ijtimoiy mas'uliyat hissini tarbiyalashga qaratilgan. Dasturning maqsadi o'quvchilarga Singapur tarixi, milliy rivojlanish yo'li va global muammolarga tanqidiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatini berishdir. Bu dastur ta'lim jarayonining bir qismi sifatida o'tkaziladi va o'quvchilarni milliy o'zlikni tushunishga hamda jamiyat uchun ijobiy hissa qo'shishga undovchi faoliyatlarni o'z ichiga oladi [6]. Shu bilan birga, dastur "His qilish, o'rganish va amal qilish" tamoyilini o'z ichiga olib, bu metod yoshlarni bilish jarayoniga jalb qilish, ularda milliy g'ururni uyg'otish va jamoatchilikka hissa qo'shishga undaydi [7]. Singapur davlati o'quvchilarda global muammolarga tanqidiy yondashish sifatini yo'lga qo'ygan bo'lib, ushbu jarayonni milliy faoliyatimizda joriy etish o'quvchilarda vatanparvarlik ruhiyatining barqarorlashuviga hamda O'zbekistonning xalqaro nufuzi ortishiga zamin yaratadi.

Finlyandiya tajribasida fuqarolik ta'limi muhim o'rin egallaydi. Fuqarolik ishtirok etishga va ijtimoiy mas'uliyatni anglashni o'rgatishga qaratilgan keng qamrovli dasturlar orqali amalga oshiriladi. Bu ta'lim tizimi demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va jamiyatga hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu dastur o'z ichida "Bir kunlik ijtimoiy mehnat" ijtimoiy loyihasini aks ettirib, o'quvchilar ularda ishtirok etish orqali jamiyatga hissa qo'shish hissini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, tabiat himoyasi va madaniy merosni saqlash bo'yicha loyihalar ham amalga oshiriladi [8]. Shunga o'xshash modeldagi ijtimoiy loyihalarni mamlakatimizda joriy etish, misol uchun o'quvchilarning bir kunlik ijtimoiy mehnatga, jumladan, muassasa yaqinida istiqomat qiluvchi keksa yoshdagilarning xonadonni obodonlashtirish kabi ro'zg'oridagi qiyinchiliklarga jalb etilishi o'quvchilarda jamiyat manfaatlarini his qilishni hamda vatanparvarlikning yuqori darajada shakllanishiga olib keladi.

Germaniyada "Demokratik tarbiya" dasturi ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, yoshlarni demokratik qadriyatlarga hurmat, mas'uliyatli fuqarolik va jamiyatda ishtirok etishga o'rgatishni maqsad qiladi. Bu dastur Germaniyaning tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda, totalitarizm va avtoritarizmning zararlarini o'rganish, demokratik jamiyat qurishga hissa qo'shadigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. Jumladan, Germaniyada har yili "Demokratiya va turlilik uchun turib berish" tadbiri o'tkazilib, bu tadbirda demokratiya va turlilikni yoshlarga ko'rsatish uchun qator amaliy mashg'ulotlar va musobaqalar tashkil qilinadi [9]. Darhaqiqat, O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlari demokratik qadriyatlarga asoslanganligini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, demokratiyaning eng maqbul tizimligini o'quvchilarga singdirib borish hamda ushbu yo'nalishda tadbirlar tashkil etish vatanparvarlik ruhiyatining yuqori darajada namoyon bo'lishida katta hissa qo'shadi.

Natija. Yangi davrning eng muhim xususiyati mustaqil o'ylay oladigan, tafakkur yuritib, to'g'ri, ma'qul va maqbul ish tuta oladigan, vatanparvar hamda ma'naviyati yuksak bo'lgan shaxslarni shakllantirish va tarbiyalashdan iboratdir. Zero, har qanday davlatning ma'naviy kuchi ham ijtimoiy institutlarning ta'sirchanligi va jamiyat a'zolarining kasbiy kamoloti hamda jamiyatga xos tartiblar, qoidalar, me'yorlarga rioya qilish darajasiga bog'liqdir [10].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tayyorlashning asosiy maqsadi shuki, ularda sadoqat, fuqarolik mas'uliyati va jamoatchilikka faol hissa qo'shish istagini shakllantirishdir. O'zining tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda har bir davlat bu jarayonda o'zining o'ziga xos yondashuvini ishlab chiqadi. Ushbu yondashuvlar orqali nafaqat yoshlarning bilim darajasini oshirish, balki ularni milliy g'urur va jamoaviy mas'uliyat hissi bilan to'ldirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.R.Nazarov, I.A.Mamajonov – "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davr talabi" – Maqola. 127-128-b.
2. "Ta'lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // – Toshkent, 2022-yil 29-sentyabr. 214-b.
3. Ochildiyev A. Mafkuraviy tahdidlar va g'oyaviy tarbiyaning dolzarb masalalari// Ma'naviy va diniy yetuklik – davr talabi. – T.: Toshkent islom universiteti, 2009. 381-382-b.
4. R.D.Axmetov, Raxmatov J.X. – "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" –Maqola. 29-b.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Junior_ReserveOfficers%27_Training_Corps;
6. <https://necrg.moe.edu.sg/overview/what-is-national-education;>
7. <https://www.beattysec.moe.edu.sg/key-programmes/values-education/-national-edu;>
8. <https://mapping.thecivics.eu/countries/fi;>
9. <https://www.ichstehauf.org;>
10. B.R.Nazarov, I.A.Mamajonov – "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davr talabi" – Maqola. 129-b.

Mexmonali SUVANKULOV,
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,
Yuridik fanlar kafedrası boshlig'i, y.f.n., professor

FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARINI TA'MINLASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA MAHALLA YETTILIGI HAMKORLIGINING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya: maqolada ichki ishlar organlari va mahalla yettiligining fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi hamkorligi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarni ta'minlashdagi asosiy yo'nalishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ichki ishlar organlari, mahalla yettiligi, konstitutsiyaviy huquqlar, hamkorlik, ijtimoiy himoya, ekologik huquqlar.*

Annotation: the article analyzes the cooperation between internal affairs bodies and the "mahalla seven" in ensuring citizens' constitutional rights and freedoms. It highlights key areas of protecting economic, social, cultural, and environmental rights.

Key words: *internal affairs bodies, mahalla system, constitutional rights, cooperation, social protection, environmental rights.*

Аннотация: в статье анализируется сотрудничество органов внутренних дел и «махаллинской семьёрки» в обеспечении конституционных прав и свобод граждан. Рассматриваются основные направления защиты экономических, социальных, культурных и экологических прав.

Ключевые слова: *органы внутренних дел, махалля, конституционные права, сотрудничество, социальная защита, экологические права.*

Hozirgi kunda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvini inson manfaatlariga xizmat qildirish, aholi muammolarini joylarda hal etish hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash, mahalla aholisi uchun xavfsiz muhitni yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Jumladan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim siyosiy-huquqiy qadam bo'ldi. Ushbu tashabbus mahallani aholi muammolarini hal etuvchi asosiy bo'g'inga aylantirish, davlat organlari faoliyatini esa bevosita fuqarolar manfaatlariga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Bu jarayonda ichki ishlar organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, xususan, mahalla yettiligining o'zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur hamkorlik orqali joylarda huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari va mahalla yettiligi o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish, uning konstitutsiyaviy-huquqiy

asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi, eng avvalo, mamlakatimizda mahalla institutini rivojlantirish, aholi bilan ishlashning samarali mexanizmlarini joriy etish va davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar bilan belgilanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni talablaridan mahallani jamiyatdagi eng quyi, biroq eng ta'sirchan institut sifatida shakllantirish, uning vakolatlarini kengaytirish va davlat organlari, jumladan, ichki ishlar organlari bilan hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi.

Mazkur farmonda aholi muammolarini "mahallabay" hal etish, profilaktika ishlarini manzilli tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bilan individual ishlash tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilangan bo'lib, bu esa ichki ishlar organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, amaliyotda mazkur hamkorlikning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, vakolatlar taqsimoti va o'zaro axborot almashinuvi tizimida muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa ushbu



sohada ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish, mavjud mexanizmlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu jihatdan, ichki ishlar organlari va mahalla yettiligi o'rtasidagi hamkorlikni konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tadqiq etish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarining mahalla yettiligi bilan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan quyidagi hamkorlik yo'nalishlari ko'rib chiqiladi:

Fuqarolarning iqtisodiy-ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi hamkorlik.

"Fuqarolarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi doirasida iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu huquqlar qatoriga mulkka egalik qilish, mehnat qilish, dam olish, sog'liqni saqlash, ta'lim olish hamda boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ehtiyoj va manfaatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasiga muvofiq, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralari ko'rishi belgilangan. Mazkur konstitutsiyaviy normani amalga oshirish jarayonida ichki ishlar organlari hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi."

Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev

¹ <https://www.uzbekembassy.in>

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son; <https://lex.uz/docs/6449033>;

ta'kidlaganidek, "Insonning mehnatga va munosib hayot sharoitlariga, ishsizlikdan himoyalaniishga bo'lgan huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish – konstitutsiyaviy islohotlarning muhim maqsadidir¹.

"Yangilangan Konstitutsiyada ilk bor O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida e'tirof etildi. Ijtimoiy davlat tushunchasining mazmun-mohiyati ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek "Inson qadri" va "Hech kim e'tibordan chetda qolmaydi" tamoyillarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bu borada mahallada istiqomat qiluvchi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga mansubligi xatlov asosida aniqlanadi hamda ular "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritiladi. Shu asosda profilaktika inspektori va mahalla yettiligi ishtirokida tegishli xulosa

shakllantirilib, fuqarolarga belgilangan tartibda moddiy yordam ko'rsatiladi.

Fuqarolarning madaniy huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi hamkorlik.

"Fuqarolarning madaniy huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli demokratik islohotlarning asosiy mezonini hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Inson qadri uchun" tamoyili barcha islohotlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Shuningdek, "Inson – jamiyat – davlat" yangi tizimi asosida O'zbekiston taraqqiyot yo'lida izchil rivojlanib bormoqda.

Fuqarolarning madaniy huquqlariga oid konstitutsiyaviy normalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50–54-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan².

Konstitutsiyaga muvofiq, har bir shaxs ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, davlat uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishni ta'minlaydi. Shuningdek, davlat bepul umumiy o'rta ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi.

Bundan tashqari, Asosiy Qonunda umumiy o'rta ta'lim majburiy ekanligi belgilab qo'yilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim davlat nazorati ostida amalga oshiriladi.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar tahliliga



ko'ra, ichki ishlar organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari mahallada istiqomat qiluvchi har bir fuqaroning ta'lim olish huquqini ta'minlashda o'zaro hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son Farmoniga³ muvofiq tasdiqlangan "mahalla yettiligi" tizimi doirasida har kuni hududdagi umumta'lim maktablarida (maktab mavjud bo'lmagan hollarda – mahallada istiqomat qiluvchi o'quvchilar ta'lim oladigan maktablarda) mahalla raisi, profilaktika inspektori, maktab direktori va uning o'rinbosari, shuningdek, yoshlar yetakchisi ishtirokida o'quvchilarni kutib olish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Bunda o'quvchilarda vatanparvarlik va iftixor tuyg'usini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini ijro etish tashkil etiladi.

Fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi hamkorlik.

Konstitutsiyada O'zbekistonning ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, shuningdek, aholining ekologik xavfsizligiga oid

talablar mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir eng muhim prinsip va normalarni belgilab beradi.

Huquqshunos J.Safarovning fikricha, konstitutsiyaviy normalar tizimi jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasi chog'ida yuzaga keladigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tavsifidan kelib chiqib, shartli ravishda ikki qismga – umumiy va maxsus ekologik normalarga bo'linishi mumkin⁴.

Umumiy konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati, birinchidan, ularda ekologik munosabatlar to'g'ridan to'g'ri tartibga solinmaganligi; ikkinchidan, mazkur normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'luvchi umumiy qoidalarni belgilab berishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus ekologik normalari tizimi esa quyidagilardan iborat: fuqarolarning ekologik burchi (62-modda); mulkdan foydalanishda ekologik talablarga rioya etish (66-modda); davlat ekologik siyosatini amalga oshirish prinsiplari (115-modda); mahalliy davlat hokimiyati organlarining ekologiya sohasidagi vakolatlari (123-modda).

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya eski tahrirdan farqli ravishda ekologik munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri

³ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2023 y., 06/23/209/0966-son; <https://lex.uz/uz/docs/6705763>;

⁴ J.Safarov. Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba // https://constitution.uz/uz/pages/Ekologik_munosabatlar

tartibga soluvchi yangi konstitutsiyaviy normalar bilan boyitilgan bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, Konstitutsiyaning muqaddimasida "mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirish, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlash" kabi ulug' maqsadning belgilanishi fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashning ahamiyatini yanada oshiradi;

ikkinchidan, Konstitutsiyaning 49-moddasiga muvofiq, har bir shaxs qulay atrof-muhitga hamda uning holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Shuningdek, davlat shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, shaharsozlik hujjatlari loyihalarini qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazishni ta'minlaydi hamda barqaror rivojlanish prinsipi asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlash choralari amalga oshiradi.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar to'g'ridan to'g'ri ichki ishlar organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ekologik sohadagi hamkorligini tartibga solmasa-da, ularning faoliyatiga bilvosita huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, ichki ishlar organlari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

birinchidan, mahallada "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar natijadorligi va haqqoniyligini nazorat qiladi, ya'ni mutasaddi tashkilotlar tomonidan ko'chatlarning haqiqatda ekilganligi, ularni sug'orish va parvarishlash ishlari belgilangan tartibda tashkil etilganligini tekshiradi;

ikkinchidan, mahalla hududida chiqindilarni tozalash ishlari hamda fuqarolar, korxona va

tashkilotlar tomonidan chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash holatlarining oldini olishni nazorat qiladi. Bunday holatlar aniqlangan taqdirda, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida huquqbuzar shaxslar aniqlanib, ichki ishlar organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortiladi;

uchinchidan, daraxtlarni kesish bo'yicha joriy etilgan moratoriyga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi hamda qonunbuzarlik holatlari aniqlanganda tegishli organlarni zudlik bilan xabardor qiladi;

to'rtinchidan, mahalla hududida aholi tomonidan ichimlik suvidan oqilona foydalanish va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik holatlarini nazorat qiladi;

beshinchidan, mahalla hududida joylashgan korxona, tashkilot va tadbirkorlik subyektlari tomonidan atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining oldini olish va ushbu jarayonni nazorat qiladi;

oltinchidan, aholi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish va ekologik burchlarga rioya etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshiradi;

yettinchidan, "Yashil mahalla"ni shakllantirish va hududni obodonlashtirish maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hasharlar tashkil etish va fuqarolarni ko'kalamzorlashtirish ishlariga jalb etishda ishtirok etadi.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari va mahalla yettiligining fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o'zaro hamkorligi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu hamkorlik fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyotda hamkorlikning ayrim tashkiliy-huquqiy jihatlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Ushbu sohada samaradorlikni oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi: hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish va yagona normativ mexanizmni shakllantirish; axborot almashinuvi tizimini raqamlashtirish va tezkorlikni oshirish; profilaktika ishlarida "mahallabay" yondashuvni kuchaytirish; ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan individual ishlash tizimini rivojlantirish; ekologik va huquqiy targ'ibot ishlari tizimli tashkil etish; shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari va mahalla faollari uchun hamkorlik yo'nalishida muntazam o'quv va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish.



Firuz ABDUNAZAROV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, podpolkovnik

HARBIY XIZMATCHILARNI (XODIMLARNI) JAMOAT TARTIBINI SAQLASH XIZMATIGA TAYYORLASHGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik ko'rishning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritilgan. Dunyo va O'zbekiston olimlari tomonidan jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik ko'rish borasidagi fikrlari o'rganilib, bayon etilgan, shuningdek, tayyorgarlik jarayonida qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar va usullar tahlil qilingan. Harbiy xizmatchi va xodimlarning kasbiy malakasi, huquqiy bilimi, jismoniy, taktik va psixologik tayyorgarligi jamoat tartibini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslari keltirilgan. Jamoat tartibini saqlash xizmatiga **tayyorgarlik ko'rish, malakali tayyorgarlik** hamda **tayyorgarlik ko'rishning tamoyillari** tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan. Jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik davomida maxsus – taktik tayyorgarlik va taktik - tibbiy tayyorgarlik yo'nalishlari belgilab o'tilgan.

Kalit so'zlar: *jamoat tartibi, huquqbuzarlik, fuqarolar xavfsizligi, tayyorgarlik, huquqiy ta'lim, psixologik va jismoniy barqarorlik, taktik mashqlar, yondashuv, tamoyil, malakali tayyorgarlik.*

Аннотация: в данной статье раскрыты научно-теоретические аспекты подготовки к службе по охране общественного порядка. Изучены и изложены мнения зарубежных и узбекских учёных относительно подготовки к службе по охране общественного порядка, а также проанализированы основные подходы и методы, применяемые в процессе подготовки. Приведены основания, согласно которым профессиональная квалификация, правовые знания, физическая, тактическая и психологическая подготовка военнослужащих и сотрудников имеют важное значение для обеспечения общественного порядка. Дано авторское определение понятий «подготовка к службе по охране общественного порядка», «квалифицированная подготовка» и «принципы подготовки». В ходе подготовки к службе по охране общественного порядка выделены направления специальной тактической подготовки и тактической медицинской подготовки.

Ключевые слова: *общественный порядок, правонарушение, безопасность граждан, подготовка, правовое образование, психологическая и физическая устойчивость, тактические упражнения, подход, принцип, квалифицированная подготовка.*

Annotation: this article highlights the scientific and theoretical aspects of preparation for public order maintenance service. The views of international and Uzbek scholars on the preparation process for public order maintenance service have been studied and presented, and the main approaches and methods used during the training process have been analyzed. The article provides grounds showing that the professional skills, legal knowledge, as well as the physical, tactical, and psychological preparedness of military personnel and officers play an important role in ensuring public order. The author offers original definitions of the concepts of "preparation for public order maintenance service," "qualified training," and "principles of preparation." In addition, the directions of special tactical training and tactical medical training during the preparation for public order maintenance service are identified.

Key words: *public order, offense, citizens' safety, training, legal education, psychological and physical stability, tactical exercises, approach, principle, qualified training.*

Kirish. Hozirgi global xavfsizlik muhitida jamoat tartibini saqlash xizmatiga yuklatilgan vazifalar tobora murakkablashib bormoqda. Fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va aholi bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish uchun jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan shaxsiy tarkibning (keyingi matnlarda shaxsiy tarkib deb yuritiladi) tayyorgarligi yuqori darajada bo'lishi zamon talabiga aylanmoqda. Shu sababli shaxsiy tarkibni tayyorlash tizimini ilmiy-nazariy asosda takomillashtirish muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyoning barcha mintaqalarida jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Jinoyatchilikning ko'payishi, kriminogen

vaziyatning kuchayishi bilan ajralib turadigan zamonaviy sharoitda davlat va mahalliy organlarning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyati katta ahamiyatga ega.

Jamoat tartibini saqlash xizmati degan so'zga tadqiqotchi Y. Mirzayev quyidagicha ta'rif bergan "Jamoat tartibini saqlash xizmati – bu davlatning huquqni muhofaza qilish tizimining ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning tinch hayoti va huquqiy tartibotini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir" [1]. Bu sohadagi xizmat faoliyatining samaradorligi, avvalo, shaxsiy tarkibning nazariy, amaliy, kasbiy va ma'naviy tayyorgarligiga bog'liq. Ilmiy adabiyotlarda, xususan V.Zaremboning ta'kidlashicha, bu xizmat "jamiyat xavfsizligining asosiy kafolati" sifatida talqin etiladi [2].



Psixologiya, sotsiologiya va huquq sohasi olimlari fuqarolarning xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini kompleks tarzda tahlil qilganlar. Misol qiladigan bo'lsak, A.Maslou o'zining ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida "xavfsizlik ehtiyojini insonning asosiy ehtiyojlaridan biri" sifatida belgilaydi [3]. E.Dyurkgeym esa "jamoat tartibini ijtimoiy ong va intizom orqali ta'minlashi" ni ta'kidlaydi [4].

Bu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jamoat tartibini saqlash xizmatiga ajratiladigan shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilim va ko'nikmalari jamoat tartibini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ilmiy nuqtai nazardan qaranganda, harbiy xizmatchi va xodimlarning malakali tayyorgarligi jamoat tartibini saqlashning asosiy tayanch omillaridan biri deb hisoblaymiz. Xorijiy tadqiqotchilar ham bu sohada turli ilmiy yondashuvlarni ilgari surishgan. Jumladan, Buyuk Britaniyalik olim R. Vatson "Jamoat xavfsizligi xodimlarini tayyorlashda simulyatsiya va keys-tahlil usullari orqali qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish muhim"ligini ta'kidlagan [5], Amerikalik olim D. Miller fikriga ko'ra, "Tayyorgarlik jarayonida emotsional barqarorlikni rivojlantirish, xizmatchining stressga chidamliligini ta'minlaydi" [6]. Yaponiyalik K. Takaxashi esa ta'limning axloqiy komponentlariga e'tibor qaratib, "qonun ustuvorligi bilan birga jamoatchilikka xizmat qilish g'oyasi xodim tayyorgarligining markazida bo'lishi lozim" deb aytib o'tgan [7].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ta'kidlashicha, jamoat tartibini saqlash xizmatidagi samaradorlik, tayyorgarlikning sifat darajasi bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, J.G'aniyev va B.Mirzayevlar "Jamoat xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorgarligi faqat kasbiy bilim bilan cheklanmasdan, ma'naviy barkamollik bilan uyg'un bo'lishi zarur" ligini ta'kidlaydilar [8]. Shu bilan birga, huquqiy amaliyot nuqtai nazaridan, O.Abdulazizov "Jamoat tartibini saqlashda muvaffaqiyat – xodimlarning amaliy malakasi, stressni boshqarish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga

bog'liq" degan fikrni ilgari surgan [9]. B. Xaydarov fikriga ko'ra, "Jamoat tartibini saqlash xizmatini amalga oshiruvchi har bir xodim huquqiy bilim, jismoniy barqarorlik va axloqiy mas'uliyatni uyg'unlashtirgan holda tayyorlanishi lozim" [10]. A. Ergashev tomonidan "Tayyorgarlik jarayonida xodim faqat qonunni bilish bilan cheklanmasligi, balki fuqaro bilan muloqot qilish madaniyatini ham egallashi kerak" deb fikr bildirgan [11]. Sh. Nazarov esa xizmat tayyorgarligining psixologik jihatlariga e'tibor qaratib, "stress holatida qaror qabul qilish qobiliyati – xavfsizlik xizmati samaradorligining asosiy ko'rsatkichi" ekanligini ta'kidlaydi [12].

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikr va tavsiyalarini tahlil qilgan holda shuni ta'kidlash kerakki, jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorlashda asosan, huquqiy, psixologik, ma'naviy-axloqiy jihatlariga ko'proq ahamiyat berilgan.

Ammo hozirgi kunda jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik ko'rishda, shaxsiy tarkibning amaliy tayyorgarligi, asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi namoyon bo'lmoqda. Chunki xizmat tahlil qilinganda Toshkent shahrining o'zida bir necha marotaba jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb qilingan xodimlarga nisbatan tartibbuzarlar tomonidan ochiqdan ochiq qarshilik va sovuq quroldan foydalanilgan holda hujum qilingan. Bu esa, o'z navbatida, shaxsiy tarkibdan malaka va yuqori darajadagi amaliy tayyorgarlik talab etiladi. Shu bilan birga, "jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorlash yoki tayyorgarlik ko'rish" degan iboraga adabiyotlarda alohida ta'rif berilmagani ushbu faoliyatga alohida ta'rif berilishini talab etadi (birinchi taklif)

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, jamoat tartibini saqlash xizmatiga shaxsiy tarkibni tayyorlash tizimi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi kerak, balki amaliy faoliyat orqali shaxsiy va kasbiy barqarorlikni ta'minlashi lozim deb hisoblaymiz. Bu borada Sh.Mahkamov ham shu kabi fikrlarni bildirgan [13]. Bunda shaxsiy tarkibni amaliy tayyorlashda o'quv moddiy bazani boyitish, xususan maxsus jihozlangan joy va sinfdan foydalanish orqali ijobiy natijalarga erishiladi.

Harbiy xizmatchi va xodimlarni xizmatga tayyorlash jarayoni ko'p qirrali va tizimli yo'nalishga ega bo'lib, u quyidagi **ilmiy yondashuvlar** asosida tashkil etiladi [14], jumladan:

sistemali yondashuv – tayyorgarlik jarayonini bilim, malaka, jismoniy va axloqiy tarbiyani qamrab olgan yagona tizim sifatida tashkil etish;

Funksional yondashuv – har bir xodimning lavozimini va xizmat vazifalariga muvofiq ravishda aniq kompetensiyalarni shakllantirish.

Innovatsion yondashuv – ta’lim jarayonida simulyatsiya, modellashirish raqamli texnologiyalar va interaktiv usullar joriy etish.

Integrativ yondashuv – huquqiy, psixologik, jismoniy va axloqiy tayyorgarlik elementlarini bir butun tizim sifatida uyg’unlashtirish.

Jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb qilingan shaxsiy tarkibni tayyorlash quyidagi yo’nalishlarda amalga oshirilishi bo’yicha rus olimi L.Petrova tomonidan quyidagilarni belgilab o’tgan.

Huquqiy tayyorgarlik – qonunchilik asoslarini puxta o’zlashtirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish;

Psixologik tayyorgarlik – stress holatda qaror qabul qilish, fuqarolar bilan muloqot qilish, ziddiyatlarni bartaraf etish ko’nikmalarini rivojlantirish;

Jismoniy tayyorgarlik – tezkorlik, chidamlilik, o’zini va atrofdagilarni himoya qilish malakasini oshirish;

Ma’naviy – axloqiy tayyorgarlik – vatanparvarlik, sadoqat, xizmat burchiga mas’uliyat bilan yondashishni singdirish;

Axborot-kommunikatsiya tayyorgarligi – raqamli xavfsizlik va axborot texnologiyalari bilan ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish.

Rus olimi L.Petrova tomonidan ilgari surilgan yo’nalishlarga qo’shimcha qilib, jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik ko’rishda quyidagi yo’nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Maxsus-taktik tayyorgarlik – turli vaziyatlarda harakat qilish ko’nikmalarini mustahkamlash uchun real sharoitlarga yaqin mashqlar va mashg’ulotlar o’tkazish. Ushbu yo’nalish asosan, hozirgi davrda huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarning zamonaviylashuvi va o’zgarib borishi natijasida, unga qarshi turuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar shaxsiy tarkibining turli xil vaziyatlarda tezkor taktik harakatlarni amalga oshirilishini, real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda mashq qilishlarini, amaliy harakatlarini turli xil shakl va usullaridan foydalanish tartibini mukammal o’zlashtirishlari nazarda tutiladi.

Taktik-tibbiy tayyorgarlik – huquqbuzarlik yoki hodisa natijasida jabrlangan (jarohatlangan) fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish ko’nikmalarini o’rgatish. Ushbu yo’nalishga asosan, jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan shaxsiy tarkib tomonidan har qanday vaziyatda jarohatlangan fuqaroga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish ko’nikmalarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchining o’ziga

ham tartibbuzar yoki jinoyatchilar tomonidan jarohat yetkazilganda o’z-o’ziga tibbiy yordam ko’rsatish tartibini shakllantiradi.

Har bir faoliyat belgilangan tartib-qoidaga amal qilishi, ya’ni o’z tamoyillariga asosan amalga oshirilishi zarur, buning uchun eng avvalo, “jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik tamoyillari” tushunchasiga ta’rif berish talab etiladi (ikkinchi taklif). Jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Qonun ustuvorligi va intizom tamoyili – tayyorgarlik jarayoni amaldagi qonunlar, me’yoriy hujjatlar va davlat tomonidan belgilangan tartib-qoidalarga asoslanishi lozim. Bu esa o’z navbatida, shaxsiy tarkib faoliyatidagi qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquqlarini hurmat qilishlarini hamda jamoat tartib-qoidalariga shaxsan namuna bo’lishlarini nazarda tutadi.

Professionallik va mas’uliyat tamoyili – tayyorgarlik jarayoni, har bir harbiy xizmatchining jamoat tartibini saqlash xizmatiga muntazam tayyorgarlik ko’rishi, bilimlarini takomillashtirib borishi, o’zining professional tayyorgarligini shakllantirishi zarurligini belgilaydi hamda xizmatdagi harakatlari va jamoat tartibini saqlash uchun shaxsan javobgarligiga asoslanadi.

Psixologik va jismoniy barqarorlikni ta’minlash tamoyili



– tayyorgarlik jarayonida har bir harbiy xitmatchining ruhan baquvvat, sabr-toqatli va madaniyatli bo'lishi, fuqarolar bilan muloqotda samimiylilik va ishonch muhitini yaratadi hamda shaxsiy tarkibning ruhiy mustahkamligi stressga chidamliligi va yuqori jismoniy tayyorgarlik darajasini ta'minlashga qaratilgan asosiy nazariy va amaliy qoidalarni takomillashtirishga yo'naltirishga qaratiladi. Bu tamoyil shaxsiy tarkibni xizmat sharoitidagi xavfli va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va tezkor harakat qilish imkoniyatini oshiradi.

Ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyili – jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb qilingan shaxsiy tarkibni tayyorlashda fuqarolarning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etishga asoslangan muhim qoidalaridan biridir. Bu tamoyilning asosida har bir shaxsga teng munosabatda bo'lish, qonuniy manfaatlarini himoya qilish va uning qadr-qiyamatini hurmat qilish prinsiplari yotadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, tinchlik va xavfsizlik tabiiy holat emas, balki uzluksiz mehnat, ongli harakat va yuqori malaka natijasidir. Jamoat tartibini saqlashga mas'ul organlar shaxsiy tarkibining malakali tayyorgarligi xavfsizlik tizimining markaziy ustuni hisoblanadi. Yuqoridagi olimlarning fikr va mulohazalarini tahlil qilgan holda "Tinchlik va xavfsizlik – malakali tayyorgarlikdan boshlanadi" degan so'zni jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik faoliyatining asosiy g'oyasi sifatida belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi hamda "Malakali tayyorgarlik" so'ziga ta'rif berish talab etiladi (uchinchi taklif). Bu tayyorgarlik bilim, ko'nikma, madaniyat va

psixologik barqarorlik kabi jihatlar bilan o'zaro shakllanadi.

Jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik – bu faqat jismoniy yoki huquqqiy bilim berish emas, balki harbiy xitmatchi va xodimlarning shaxsiy, psixologik, axloqiy va intellektual rivojlanishini qamrab oluvchi murakkab tizimdir. Zamonaviy ilmiy qarashlar bu sohada tayyorgarlikni integratsiyalashgan, tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorlashga oid ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, "Jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik – jamoat tartibini saqlashga jalb etiladigan shaxsiy tarkibning vazifalarini samarali bajarish uchun tayyorlashga qaratilgan, shuningdek, huquqiy asoslantirilgan tashkiliy va maqsadli tadbirlar majmuasi" iborasini joriy etishni;

ikkinchidan, "Jamoat tartibini saqlash xizmatiga tayyorgarlik ko'rish tamoyillari – bu harbiy xitmatchi va xodimlarni jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning xavfsizligi va tinchligini saqlashga tayyorlash jarayonini tashkil etishda amal qilinadigan hamda mas'uliyatli, malakali va fidoyi mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy qoidalar tizimidir" degan yangicha ta'rif joriy etishini;

uchinchidan, "Tinchlik va xavfsizlik – malakali tayyorgarlikdan boshlanadi" degan g'oyaga asosan "Malakali tayyorgarlik – bu shaxsiy tarkibning jismoniy, huquqiy, psixologik va ma'naviy jihatdan xizmat vazifalarini bajarish uchun tayyorgarlik holatidir" ta'rifini berish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev Y. "Huquqni muhofaza qilish tizimida jamoat tartibini ta'minlashning ilmiy asoslari". – Toshkent, 2020.
2. Zarembo V. "Politsiya deyatelnosti i obshestvennaya bezopasnost". – Moskva, 2018.
3. Maslou A. – "Motivation and Personality". – New York, 1954.
4. Dyurkgeym E. – "The Division of Labour in Society". 1893.
5. Watson R. Public Order Training in Modern Policing Systems. – London, 2019.
6. Miller D. Resilience and Decision Making under Stress in Law Enforcement. – New York, 2020.
7. Takahashi K. Ethical Dimensions of Public Safety Training. –Tokyo, 2021.
8. G'aniyev J., Mirzayev B. – "Jamoat xavfsizligi va kadrlar tayyorgarligi", – Toshkent, 2022.
9. Abdulazizov O. – "Jamoat tartibini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar". – Toshkent, 2023.
10. Xaydarov B. Jamoat tartibini saqlashda kadrlar tayyorgarligi tizimi. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2021.
11. Ergashev A. Huquq-tartibot organlari faoliyatida xizmat madaniyati. – Toshkent, 2023.
12. Nazarov Sh. Psixologik barqarorlik va xavfsizlik xizmati samaradorligi. "Xavfsizlik va ta'lim", №2, 2024.
13. Mahkamov Sh. "Xodimlarni kasbiy tayyorlashning psixologik jihatlarini". – Toshkent, 2021.
14. Petrova L. "Sovremennyye podkhody k podgotovke sotrudnikov pravooxranitelnykh organov". – Sankt-Peterburg, 2019.



Jasur XAMRAYEV,
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Yuridik fanlar kafedrası o'qituvchisi, kapitan

KRIPTOAKTIVLARNI JINOYAT- PROTSESSUAL TARTIBDA RASMIYLASHTIRISH MASALALARI

(Ashyoviy dalil sifatida)

Annotatsiya: maqolada kibermakonda sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha kriptovalyutalarni ashyoviy dalil sifatida jinoyat-protsessual tartibda to'g'ri rasmiylashtirish masalalari mantiqiy ketma-ketlikda atroflicha, raqamli dalillarni aniqlash, hujjatlashtirish, ekspertizadan o'tkazish va sudga taqdim etish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, kriptovalyutalarni to'g'ri rasmiylashtirishning prinsiplari va muhim jihatlari yoritib, sohadagi milliy qonunchilikni takomillashtirish va ilg'or xalqaro tajribadan foydalanish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat ishi, jinoyat-protsessual tartib, ashyoviy dalil, tezkor qidiruv tadbiri, kibermakon, kriptovalyuta, dastur, sud-tergov jarayoni, tergovchi.

Аннотация: в статье в логической последовательности анализируются вопросы надлежащей регистрации криптоактивов в качестве вещественных доказательств в уголовном судопроизводстве по преступлениям, совершенным в киберпространстве, рассматриваются этапы идентификации, документирования, экспертизы и представления цифровых доказательств в суд. Также освещаются принципы и важные аспекты надлежащей регистрации криптоактивов и предлагаются рекомендации по совершенствованию национального законодательства в этой области и использованию передового международного опыта.

Ключевые слова: уголовное дело, уголовно-протсесуальное право, вещественные доказательства, операция быстрого поиска, киберпространство, криптовалюта, программа, следственный процесс, следователь.

Annotation: the article analyzes in a logical sequence the issues of proper registration of crypto-assets as material evidence in criminal proceedings for crimes committed in cyberspace, analyzing the stages of identification, documentation, examination and submission of digital evidence to the court. It also highlights the principles and important aspects of proper registration of crypto-assets, and puts forward proposals for improving national legislation in this area and using advanced international experience.

Key words: criminal case, criminal procedure, material evidence, rapid search operation, cyberspace, cryptocurrency, program, judicial investigation process, investigator.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida kriptovalyutalar (kriptovalyutalar, tokenlar va boshqa raqamli aktivlar) hayotimizga kirib kelmoqda. Shu bilan birga, ulardan noqonuniy foydalanish holatlari ham ortib, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish, firibgarlik, korrupsiya, kriptovalyutalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq jinoyatlar ham o'sib bormoqda¹. Jahonning nufuzli DataGlobeHub portalining Kripto jinoyatlar 2026-yilgi statistik ma'lumotlariga qarasak, 2–6 milliard dollar qiymatdagi kriptovalyutalar firibgarlik yo'li bilan egallangan².

Kriptovalyutalar, ya'ni kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyasiga asoslangan sanoat ko'p mamlakatlarda moliyalik va iqtisodiy sohada katta ta'sirga ega. Ularning ahamiyatini *birinchidan*, Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasining rivojlanishida; *ikkinchidan*, kriptovalyutalar (bitkoyn, efir va boshqalar) yangiliklar va moliya bozorlaridagi ahamiyatida; *uchinchidan*, jinoyatlarning letentligida potensial vosita ekanligida ko'rish mumkin.



Kriptovalyutalar bilan bog'liq tergov jarayonlari – butun moliya tizimining bir qismi bo'lib, ularga nisbatan qonunchilik va huquqiy mexanizmlarning mukammal va aniq bo'lishi kerak. Sud-tergov jarayonlarida ishonchli va dalil sifatida tan olinishi uchun ular belgilangan protsessual

¹ <https://kun.uz/kr/62186213>

² <https://dataglobehub.com/crypto-crime-statistics-and-insights>



talablarga muvofiq ravishda rasmiylashtirilishi kerak. Quyida kryptoaktivlarning huquqiy asoslari, tartibi va amaliy jihatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

O'zbekiston Respublikasida bir qancha sohalar qatori kryptoaktivlar ham O'zbekistonda kriptovalyutalarga oid qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinib, kryptoaktivlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish va ularni qonuniylashtirish jarayonini amalga oshiradi. Tergov va huquqni muhofaza qilish organlarining kryptoaktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish tajribalari ortmoqda.

Kryptoaktivlarni jinoyat-protsessual tartibda rasmiylashtirish, avvalo, adolatli sudlovni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Chunki jinoyat ishi doirasida dalillarni to'plash, ularni saqlash va baholash jarayonida kryptoaktivlar alohida yondashuvni talab qiladi. Agar ularni rasmiylashtirishda yagona va aniq qoidalar bo'lmasa, bu dalillarning haqiqiylikiga shubha tug'ilishi, sud qarorlarining asossiz bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, kryptoaktivlarni dalil sifatida tan olish, ularni olib qo'yish, saqlash va ekspertizadan o'tkazish tartibini aniq belgilash juda muhim.

Kryptoaktivlarni dalil sifatida haqqoniy va ishonchli bo'lishi uchun ularni olish va rasmiylashtirishda bir necha muhim bosqichlar mavjud bo'lib, quyidagilarda ushbu bosqichlarni ko'rishimiz mumkin:

1-bosqich: dalillarni aniqlash.

Kryptoaktivlar kompyuterlar, telefonlar, planshetlarda o'rnatilgan elektron hamyonlar orqali aniqlanadi.

Hozirgi paytda ushbu elektron hamyon ichidagi mablag'ning o'zini olishning texnik imkoniyati mavjud bo'lmaganligi sababli ushbu elektron kryptoaktivlardan foydalanish imkonini beruvchi akkaunt o'rnatilgan elektron

hisoblash mashinalari, xususan, kompyuterlar, telefonlar, planshetlar soha mutaxassislari ishtirokida olib qo'yiladi.

2-bosqich: dalillarni rasmiylashtirish.

Dalil olish paytidagi turli texnika vositalari, dasturiy ta'minotlardan foydalanilib, **dastlabki holat skrinshotlar** va **eksportlangan fayllar** orqali hujjatlashtirilishi kerak.

Barcha jarayonlar **rasmiy bayonnoma** (protokol) bilan tasdiqlanishi zarur.

Ma'lumotlarni o'zgartirmaslik uchun **tegishli blokchench platformalari orqali mustahkamlanishi lozim.**

3-bosqich: mutaxassislar tomonidan ekspertizadan o'tkazish.

Sudga taqdim etilishdan oldin kryptoaktivlar **sud ekspertizasi** orqali tekshiriladi.

Ekspertiza kriptografik tahlil, IP-manzillarning tekshirilishi, fayllarning metama'lumotlari va log-fayllarning tahlilini o'z ichiga oladi.

Forensik tahlil vositalari (EnCase, Autopsy, FTK) yordamida dalillarning haqiqiyliklari tekshiriladi.

4-bosqich: **dalillarni sudga taqdim etish.**

Dalillar sudga **hujjatlashtirilgan holda** taqdim etilishi kerak.

Dalilni olgan shaxs (tergovchi, ekspert, guvoh) **dalilni qanday va qachon olgani haqida** bayonnoma tayyorlashi lozim.

Agar raqamli dalil internetda joylashgan bo'lsa, **ekran tasvirlari (screenshot)** va veb-arxiv nusxalari (Wayback Machine) qo'llanilishi mumkin.

Mazkur bosqichda kryptoaktivlar bilan bog'liq tekshiruv harakatlarini olib borishning bir necha muhim jihatlari mavjud.

Birinchidan, asos bo'lgan manbalarni aniqlash.

Tergovga qadar tekshiruvni boshlash uchun manba sifatida kriptovalyutalarning qonuniy manbalari, gumon qilingan qonunbuzarliklar faktini aniqlash lozim bo'ladi. Bu manba kriptovalyuta bilan bog'liq o'zgarishlar, shaxsiy ma'lumotlar yoki jinoyat ishlariga daxldor bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, kriptoaktivlar haqida ma'lumot to'plash: kriptoaktivlar haqida ma'lumot to'plash uchun yangi moliyaviy vositalar va zamonaviy qurilmalardan foydalanish talab qilinadi. Tekshiruv organlari, kriptovalyutalarning aniq manbalari, ularning o'tish yo'nalishlari, aloqa va operatsiyalarini aniqlashga harakat qilishlari kerak.

Yuqoridagilarga asoslanib, kriptoaktivlarni protsessual tartibda olish va to'g'ri rasmiylashtirishda quyidagi prinsiplarga asoslanishni lozim deb hisoblaymiz.

Qonuniylik – dalillar qonuniy yo'llar bilan olingan bo'lishi kerak. Noqonuniy usullar bilan olingan dalillar sudda qabul qilinmasligi mumkin.

Yaxlitlik (integrity) – kriptoaktivlar o'zgarmagan va haqiqiy ekanligi tasdiqlanishi kerak.

Autentifikatsiya – dalillarning haqiqiy ekanligini tasdiqlash uchun ekspertlar va texnik vositalar orqali tekshirish talab qilinadi.

Protsessual tartibga rioya qilish – dalillarni olish, saqlash va sudga taqdim etish jarayoni protsessual qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak.

Kriptoaktivlar zamonaviy jamiyatda nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy munosabatlarning ham muhim tarkibiy qismiga aylanib, anonimlik, markazlashmaganlik va tezkorlik kabi xususiyatlar kriptoaktivlarni jinoiy faoliyatda qo'llashni osonlashtiradi. Kriptoaktivlarni jinoyat ishlarida



dalil sifatida to'g'ri rasmiylashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, bu sohada yurisdiksiyon bazani takomillashtirish, "raqamli dalillar", "blokcheyn tranzaksiyalari", "kriptohamyon" kabi tushunchalarga huquqiy ta'rif berilish, xalqaro tajribadan samarali foydalanish zarurati har doimgidan-da muhim. Xalqaro tashkilotlar tavsiyalari, ilg'or davlatlar amaliyoti va qo'shma tergov mexanizmlarini joriy etish orqali milliy tizimni boyitish mumkin. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshiradi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, kriptoaktivlar zamonaviy jamiyat rivojining ajralmas qismi bo'lib qolar ekan, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Jinoyat-protsessual tartibda kriptoaktivlarni to'g'ri rasmiylashtirish adolatli sudlovni ta'minlash, jinoyatlarni samarali tergov qilish va fuqarolar huquqlarini himoya qilishning muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun mazkur sohada kompleks yondashuv – huquqiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlarning uyg'unligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent, 2026-yil
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2026-yil
4. Popper N. *Digital Gold*. – New York, 2020.
5. Casey E. *Digital Evidence and Computer Crime*. Academic Press, 2011.
6. Carrier B. *File System Forensic Analysis*. – Addison-Wesley, 2005.
7. Antonopoulos A. *Mastering Bitcoin*. O'Reilly, 2017.
8. FATF. *Guidance for Virtual Assets*, 2019.
9. FATF Report, 2021.
10. Kun.uz rasmiy sayti.

Дилшода ГУЛИМОВА,

Базовый Докторант кафедры Международного права и прав человека

Ташкентский Государственный Юридический Университет

dilshodaallayarovna@gmail.com

ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ «ЦИФРОВОЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВО» В ДОКТРИНЕ МЕЖДУНАРОДНОГО УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация: в статье исследуется генезис и эволюция понятия «цифровое доказательство» в международном уголовном судопроизводстве. Проанализирован переход от первоначального понимания электронной информации как составной части традиционных вещественных доказательств к формированию концепции цифрового доказательства как самостоятельного правового явления (*sui generis*). Выделены и охарактеризованы три ключевых этапа развития терминологии и доктринальных подходов. Обосновывается, что унификация понятийного аппарата на международном уровне является критически важным условием для обеспечения эффективного трансграничного обмена доказательственной информацией в борьбе с транснациональной киберпреступностью.

Ключевые слова: цифровые доказательства, электронные доказательства, международный уголовный процесс, трансграничный обмен данными, киберпреступность, компьютерная информация, вещественные доказательства.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях глобальной цифровизации и стремительного роста транснациональной киберпреступности международное правоохранительное сообщество сталкивается с серьезными вызовами в сфере расследования уголовных дел. Виртуализация преступной среды привела к тому, что подавляющее большинство следов преступлений сегодня формируется в цифровом пространстве. Как справедливо отмечает Управление ООН по наркотикам и преступности (UNODC), электронные доказательства в настоящее время играют решающую роль не только в расследовании киберпреступлений, но и в делах о традиционных видах транснациональной преступности [1].

Однако эффективность межгосударственного взаимодействия в сфере сбора и обмена такими доказательствами напрямую зависит от единообразного понимания их правовой природы. В доктрине международного уголовного процесса и национальных юрисдикциях до сих пор отсутствует терминологическое единство: параллельно используются дефиниции «компьютерная информация», «электронное доказательство», «цифровое доказательство», «цифровой след».

Подобная правовая неопределенность порождает коллизии при исполнении международных запросов о правовой помощи, замедляет процесс трансграничной передачи данных и создает риски признания полученных доказательств недопустимыми. Для преодоления этих препятствий необходимо проследить эволюцию данного понятия, чтобы


выявить его сущностные характеристики и тенденции развития в международном праве.

Генезис понятия «цифровое доказательство» неразрывно связан с развитием информационно-коммуникационных технологий и может быть разделен на три ключевых этапа, каждый из которых отражает трансформацию научных взглядов от восприятия физической формы к осознанию ценности виртуального содержания.

1. «Машинный» период: привязка к физическому носителю (1980-е – конец 1990-х гг.)

На начальном этапе внедрения вычислительной техники в гражданский оборот правовая наука столкнулась с феноменом «компьютерных данных». Доктрина того времени, опираясь на классические институты уголовного процесса, пыталась интегрировать новые





сущности в существующую систему доказательств.

В этот период в международной практике преваляровал термин «компьютерное доказательство» (computer evidence). Ключевой особенностью данного этапа являлось то, что информация не мыслилась в отрыве от ее физического носителя (жесткого диска, дискеты, магнитной ленты). Соответственно, как в зарубежной, так и в отечественной доктрине компьютерные носители информации рассматривались преимущественно как разновидность традиционных вещественных доказательств [2].

На международном уровне первые попытки осмысления этой проблемы были предприняты Советом Европы. В частности, в Рекомендации № R (95) 13 Комитета министров Совета Европы «Относительно проблем уголовно-процессуального права, связанных с информационными технологиями» (1995 г.) акцент делался на поиске и изъятии физических систем, содержащих данные [3]. Процессуальное значение придавалось не столько самой виртуальной информации, сколько материальному объекту, который ее хранит. Это приводило к тому, что при трансграничном обмене органы следствия запрашивали передачу самих устройств, что было технически и юридически громоздким механизмом, не отвечающим скорости изменения цифровой среды.

2. Сетевой период и стандартизация: от носителя к содержанию (начало 2000-х – 2010-е гг.)

Развитие глобальной сети Интернет и трансграничной маршрутизации трафика кардинально изменило парадигму. Информация стала легко передаваться на огромные расстояния без физического перемещения носителя. Это потребовало от международного сообщества выработки новых конвенциональных механизмов и пересмотра доктринальных подходов.

Исторической вехой на данном этапе стало при-

нятие Советом Европы Конвенции о киберпреступности (Будапешт, 2001 г.). Именно этот документ ввел в оборот международного права термины «компьютерные данные» (computer data) и, в контексте процессуального принуждения, заложил основу для работы с «электронными доказательствами» (electronic evidence). В статье 1 Конвенции компьютерные данные определяются как «любое представление фактов, информации или понятий в форме, подходящей для обработки в компьютерной системе» [4].

На этом этапе в мировой и отечественной доктрине развернулась острая научная

дискуссия о правовой природе таких доказательств. Известный британский исследователь Стивен Мейсон (Stephen Mason), один из ведущих специалистов в области электронных доказательств, обоснованно указывал, что электронное доказательство по своей гносеологической природе принципиально отличается от бумажного документа, так как оно создается, хранится и передается в форме, недоступной для непосредственного человеческого восприятия без использования специальных технических средств [5].

В отечественной науке в этот период также происходил концептуальный сдвиг. Если ранее данные привязывались к устройству, то теперь ученые начали выделять их информационную сущность. Так, В.А. Мещеряков выдвинул концепцию «виртуальных следов», подчеркивая, что слеодообразование в компьютерной среде происходит на логическом, а не на физическом уровне [6]. В свою очередь, В.Б. Вехов и П.С. Пастухов активно развивали идею об использовании электронных документов и компьютерной информации в качестве полноценных доказательств, указывая на ограниченность классической дихотомии «вещественное доказательство — иной документ» применительно к цифровой среде.

В рамках международного уголовного процесса этот период характеризовался тем, что правоохранительные органы при направлении запросов о взаимной правовой помощи (MLAT) стали запрашивать не изъятие серверов (что парализовывало бы работу интернет-провайдеров), а копирование конкретных электронных файлов (логи, переписка, базы данных).

3. Облачный период: концепция доказательства sui generis и проблема юрисдикции (2010-е гг. – настоящее время)

Третий этап эволюции детерминирован повсемест-

ным внедрением облачных вычислений, технологий распределенных реестров (блокчейн) и Интернета вещей (IoT). Данные окончательно оторвались не только от конкретного устройства пользователя, но и от конкретной территории. Один и тот же массив информации может быть фрагментирован и распределен по серверам, находящимся в десятках различных государств.

В связи с этим австралийский криминолог Джонатан Клаф (Jonathan Clough) справедливо отмечает, что облачные технологии разрушают традиционный принцип территориальности в международном уголовном праве. Понятие «место совершения преступления» и «место нахождения доказательства» теряют свои географические границы, что приводит к состоянию «утраты локализации» (loss of location) [7].

Именно на этом этапе в доктрине происходит смещение терминологии от «электронных» к «цифровым» доказательствам (digital evidence). Термин «цифровой» более точно отражает бинарную природу информации (кодирование нулями и единицами) независимо от физического способа ее передачи (электрические, оптические, радиоволновые сигналы).

На современном этапе в академической среде все большую поддержку находит концепция признания цифрового доказательства самостоятельным видом доказательств (*sui generis*). Как отмечает российский процессуалист С.В. Зуев, цифровая информация об-

ладает специфическими свойствами, такими как: неограниченная тиражируемость без потери качества оригинала, подверженность скрытой модификации, способность к мгновенной трансграничной передаче [8]. Эти свойства делают невозможным прямое применение к цифровым доказательствам правил собирания и оценки, разработанных для классических документов или вещественных доказательств.

Аналогичной позиции придерживаются и зарубежные исследователи. Например, американский ученый Орин Керр (Orin S. Kerr), анализируя проблемы процессуального принуждения в цифровой среде, аргументирует, что применение старых правовых концепций (таких как выемка или обыск) к виртуальным данным без учета их специфики приводит к существенному нарушению баланса между интересами следствия и правами личности на приватность [9]. В контексте международного процесса это означает, что для трансграничного обмена цифровыми доказательствами требуются специальные, ускоренные механизмы (такие как Второй дополнительный протокол к Будапештской конвенции), базирующиеся на признании цифрового доказательства уникальным правовым феноменом.

Таким образом, эволюция доктринальных взглядов демонстрирует поступательное движение от физического редукционизма (отождествления данных с носителем) к признанию самостоятельной процессуальной и информационной ценности виртуального следа.

Список использованной литературы

1. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Practical Guide for Requesting Electronic Evidence Across Borders. – Vienna: United Nations, 2019. – P. 5-7.
2. Casey, E. Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers and the Internet. – 3rd ed. – Academic Press, 2011. – P. 12-15.
3. Recommendation No. R (95) 13 of the Committee of Ministers to Member States concerning problems of criminal procedural law connected with information technology (Adopted by the Committee of Ministers on 11 September 1995 at the 543rd meeting of the Ministers' Deputies). – Council of Europe.
4. Конвенция о киберпреступности (ETS N 185) (Заключена в г. Будапеште 23.11.2001) // Бюллетень международных договоров. – 2005. – (Документ не ратифицирован РФ, используется как международно-правовой обычай и стандарт).
5. Mason, S. Electronic Evidence. – 4th ed. – London: Institute of Advanced Legal Studies for the SAS Humanities Digital Library, 2017. – P. 21-25.
6. Мещеряков, В. А. Следы преступлений в сфере высоких технологий // Библиотека криминалиста. Научный журнал. – 2013. – № 5. – С. 265-270.
7. Clough, J. Principles of Cybercrime. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – P. 410-415.
8. Зуев, С. В. Электронные копии как самостоятельный вид доказательств // Законность. – 2018. – № 10. – С. 53-56.
9. Kerr, O. S. Searches and Seizures in a Digital World // Harvard Law Review. – 2005. – Vol. 119, No. 2. – P. 531-585.

Muhammadrusul UMMATOV,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası professori,

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

E-mail: ummatovmuhammadrusul@gmail.com

KOMPYUTER AXBOROTIGA NOQONUNIY KIRISH JINOYATINI TERGOV QILISH USULLARI

Annotatsiya: kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda foydalanish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirishga oid tadqiqotlarda elektron dalillarni aniqlash, protsessual tartibda to'g'ri rasmiylashtirish, ularning xususiyatlarini, shu bilan birga, dalillarni xavfsiz saqlash, ekspertizalarni tayinlash, sun'iy intellektdan samarali foydalanish va sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish orqali ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish o'rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *kompyuter, qonunga xilof, dalillar, dalillarni aniqlash, xavfsiz, ekspertiza, sun'iy intellekt.*

Аннотация: в исследованиях, направленных на совершенствование расследования преступлений, связанных с незаконным использованием компьютерной информации, изучались и анализировались вопросы идентификации электронных доказательств, их надлежащей процессуальной формализации, характеристик, а также безопасного хранения доказательств, назначения экспертов, эффективного использования искусственного интеллекта и широкого внедрения инновационных технологий в эту область для борьбы с данным видом преступлений.

Ключевые слова: *компьютер, незаконный, доказательства, идентификация доказательств, безопасный, криминалистика, искусственный интеллект.*

Annotation: research aimed at improving the investigation of crimes related to the illegal use of computer information has examined and analyzed issues of identification of electronic evidence, its proper procedural formalization, characteristics, as well as secure storage of evidence, the appointment of experts, the effective use of artificial intelligence, and the widespread introduction of innovative technologies in this area to combat this type of crime.

Key words: *computer, illegal, evidence, evidence identification, secure, forensics, artificial intelligence.*

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishni oldiga maqsad qilib oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "O'tgan davrda qabul qilingan 400 ga yaqin yaxlit qonunlar hayotimizning barcha sohalarini huquqiy tartibga solish bilan birga, fuqarolik huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda"[1]. Shiddat bilan taraqqiy etayotgan zamonaviy global jarayonlar davlatlar oldiga yuqori texnologik yechimlarni ishlab chiqish, ilg'or axborot-texnik vositalar yaratish va dasturiy ta'minotni rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari (ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya va ta'lim sohaları)ga zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali to'laqonli raqamli iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoda axborot-kommunikatsiyalar va texnologiyalarining rivojlanishi axborotlarning juda tezlik bilan tarqalishi, qayta ishlov berilishi, o'chirilishi va yangilanishi mumkinligini ko'rsatadi. Davlatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi uchun axborot hamda u bilan bog'liq bo'lgan axborotlashtirish jarayonini huquqiy tartibga solishga alohida ahamiyat qaratishi lozim. Hozirgi kunda

axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi ortishi bilan ulardan noqonuniy foydalanish holatlari ham ko'paymoqda. Globallashuv jarayonlari yangi imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa-da, axborot tizimlariga noqonuniy kirish, ma'lumotlarni o'g'rilash, o'zlashtirish yoki yo'q qilish kabi qilmishlar davlatlar manfaatları va xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Kiberjinoyatlar natijasida yetkazilgan zarar yiliga o'rtacha 15 %ga oshib bormoqda. Bu ko'rsatkich 2021-yilda

6 trln., 2022-yilda 8 trln., 2023-yilda 11 trln. AQSH dollariga baholangan bo'lsa, 2026-yilga borib 20 trln. AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa tabiiy ofatlar, qurol yoki giyohvandlik vositalari savdosidan tushadigan noqonuniy daromadlardan ham ko'p bo'lib [2], axborot xavfsizligini ta'minlash, ushbu sohadagi jinoyatlarni tergov qilish va fosh etishning nazariyasi hamda metodikasini takomillashtirish nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb va ustuvor vazifa ekanidan dalolat bermoqda.

Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda foydalanish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirishga oid tadqiqotlarda elektron dalillarni aniqlash, protsessual tartibda to'g'ri rasmiylashtirish,

ularning xususiyatlarini o'rganish hamda tergov idoralari xodimlarining malakasini oshirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, dalillarni xavfsiz saqlash, ekspertizalarni tayinlash, sun'iy intellektdan samarali foydalanish va sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish orqali ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishning ilmiy-nazariy asoslari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral kuni imzolagan PF 4947-sonli farmoniga asosan O'zbekiston milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur dasturning 2-yo'nalishi, ya'ni "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari"da quyidagilar keltirib o'tilgan:

Birinchidan, sud-huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, ikkinchidan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish, uchinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish, to'rtinchidan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish kabi ustuvor vazifalar belgilab o'tilgan [3].

Biroq mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda ham qator tizimli muammolar, xususan, o'tkaziladigan tergov harakatlari an'anaviy turdagi jinoyatlardan farqli ravishda, o'ziga xos taktik yondashuv talab etishi, raqamli dalillarni aniqlash va rasmiylashtirishda yo'l qo'yilayotgan protsessual xato va kamchiliklar, aksariyat tergovchilarda maxsus bilim va amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi ularni fosh etish, isbot qilishda dalillar bazasini mustahkamlash, yetkazilgan ziyonning qoplanishini ta'minlashda jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Kompyuter tizimidan foydalanib sodir sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda boshqa turdagi jinoyatlarni tergov qilishdan bir qancha farqli jihatlari bo'lib, mazkur turdagi jinoyatlarni fosh etishda hodisa sodir bo'lgan joyni va kompyuter qurilmasini ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish o'tkazish, olib qo'yish va boshqa tergov harakatlari asosiy hisoblanadi. Bu tergov harakatlari orasida biz

uchun eng ko'p ma'lumotlar, ya'ni jinoyatni fosh etish uchun kerakli ma'lumotlarni oluvchi tergov harakatimiz bo'lib ko'zdan kechirish tergov harakati hisoblanadi. Bu tergov harakati barcha turdagi jinoyatlarda birinchi galda o'tkaziladigan protsessual harakat bo'lganligi va yuzaga kelgan hodisani to'lig'icha aks ettirilishini ko'zdan kechirish tergov harakatining nechog'lik to'g'ri va sinchkovlik bilan o'tkazilganligiga bog'liq. Kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarda ko'zdan kechirish tergov harakatini jinoyatning asl holati, ko'zdan kechiriladigan obyektlariga qarab quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir: 1) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish; 2) kompyuter vositalarini ko'zdan kechirish;

3) raqamli axborot tashuvchilarni ko'zdan kechirish; 4) raqamli axborotlarni ko'zdan kechirish va hokazolardir.

Dastlabki tergovning samarali metodikasini shakllantirishda amaldagi tergov vaziyatiga muvofiq tekshiruv va tergov harakatlarini birlashtiradigan tergov bosqichlarini ajratib ko'rsatish alohida o'rin tutadi. Jinoyat to'g'risida olingan ma'lumotlarni dastlabki tekshirish, shuningdek, tergovning birlamchi, kechiktirib bo'lmaydigan, kelgusi va yakuniy bosqichlarini ajratib ko'rsatsa bo'ladi. Bu, bizning fikrimizcha, o'rinli, chunki jinoyat ishini mohiyatan oshkor etishda kriminalistik bilimlar tizimini tartibga soladi.

Bevosita ko'rilayotgan holat murakkabligiga, zarur ma'lumotlarni olish uchun ba'zi qo'shimcha texnik vositalarni jalb etish zarurligini hisobga olgan holda hodisa sodir bo'lgan joyda qo'shimcha qurilmalar bilan ham ko'zdan kechirish, tergov harakatini amalga oshirishga to'g'ri kelishi mumkin [4].

Kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun javobgarlik belgilangan. JK normalarini qo'llashda biroz qiyinchiliklar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Bu birinchidan, JKda javobgarlikning bitta





moddada emas, balki umumiy axborot texnologiyalar sohasi bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan moddalar (alohida bandlar sifatida) nazarda tutilganligi; ikkinchidan, JKga kiritilgan axborot texnologiyalari sohasida deb nomlanuvchi yangi XX'bobda ham ushbu masalaning yechilmaganligi; uchinchidan, bugungi kunda sud-tergov amaliyotida kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarning ko'payib borayotganligi; to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda jinoyatlari bo'yicha alohida qarorining mavjud emasligi bilan izohlaydi.

Kompyuter jinoyatlarini tergov qilishning dastlabki bosqichida tergovchi jinoyat ishi bo'yicha yetarli bo'lmagan birlamchi ma'lumotlar asosida harakatlanishi. Mavjud bo'lgan jinoyat alomatlari, qoida tariqasida, har xil talqin qilinishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, aksariyat jinoyat izlari raqamli bo'lib, jinoyatchining shaxsiga doir ma'lumotlarni olish imkonini bermaydi.

Kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tergov qilish choralari quyidagi uch asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Birinchidan, kriminalistik choralar - kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish, avvalo, qonun hujjatlariga kompyuter texnikasi sohasidagi g'ayriqonuniy qilmishlar uchun alohida kriminalistik uslubiyatini takomillashtirish;

Ikkinchidan, tashkiliy - boshqaruv chora sifatida kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha alohida tergov bo'linmani tashkil etish hamda axborot borasidagi jarayonlarda va axborot tizimlari, texnologiyalar va ularni ta'minlash vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va qo'llashda tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni olib boruvchi mansabdor shaxslarning protsessual

maqomini aniq belgilash;

Uchinchidan, texnik choralar kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda kompyuter texnikasi vositalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurash sohasida huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa manfaatdor vazirliklarning xalqaro darajada o'zaro hamkorligi, yuksak texnologiyalardan jinoiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurash sohasida axborot ayirboshlash tartibini ishlab chiqish;

To'rtinchidan, tashkiliy choralar yuksak texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni aniqlash, to'xtatish va tergov qilish muammolari bo'yicha amaliyot xodimlari ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish; yuksak texnologiyalar sohasidagi

jinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish va ochish bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlash; ekspert-kriminalistika muassasalari tarkibida yuksak texnologiyalar sohasida jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha ekspertizalar o'tkazish uchun bo'linmalar tuzish; yuksak texnologiyalar sohasida mutaxassis kadrlarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish; kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liq jinoyatlarning alohida rasmiy statistikasini yuritish; mazkur jinoyatlar va ularning oqibatlariga doir ko'rsatuvlar tayyorlash va OAVlarida muntazam ko'rsatib borishga alohida e'tibor berilishi lozim.

Kompyuter vositalarini ko'zdan kechirish jinoyatga aloqador bo'lgan kompyuter vositasini ko'zdan kechirish maqsadlarini quyidagicha ifodalash mumkin. Birinchidan, jinoyatni kim va qanday maqsadda sodir etganligini aniqlash uchun jinoyat natijasida yuzaga kelgan izlarni topish; ikkinchidan, jinoyat sodir etish mexanizmini tiklash maqsadida qilmish sharoitlarini aniqlash; uchinchidan, kompyuter vositasining texnik holatini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Kompyuter vositalarini dastlabki ko'zdan kechirishni amalga oshirganda raqamli axborot tashuvchilar va kompyuter ehtiyot qismlari bilan ishlash qoidalarini biladigan kriminalistik mutaxassisning yordami kerak bo'ladi [5].

So'nggi vaqtlarda dunyoda xususan, mamlakatimizda ham kompyuter axborotlarining viruslar bilan zararlanganligi tergovchi duch keladigan keng tarqalgan vaziyatlardandir. Aksariyat holatlarda bu jinoyat izlarini yashirish yoki tergovga to'sqinlik qilish bilan bog'liq emasligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida, muammoli vaziyatlar axborot va taktik yechimlarni topishning dastlab aniqlashtirilgan va qat'iy dasturning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi [6]. Muammoli vaziyat kompyuter axborotiga noqonuniy

masofaviy kirish qanday va kim tomonidan amalga oshirilganligi to'g'risidagi bilim to'liq va yetarli bo'lmaganligi bilan ajralib turadi. Shu munosabat bilan, ushbu vaziyatdan chiqib ketishning eng maqbul usuli – isbotlash predmetiga qaratilgan tergov taxminlarini tuzish va tekshirishdir.

Tergov qilishda eng murakkab masalalardan biri bu kompyuter axborotiga noqonuniy kirgan shaxsni aniqlashdir. Tergovning dastlabki bosqichida bunday shaxslar tergovchiga ham, jabrlanuvchiga ham ma'lum bo'lmaydi. Shu sababli oldindan aniq bo'lgan samarali tergov harakatlarini amalga oshirish imkoni mavjud bo'lmaydi, tergovchi nazariy bilimlari hamda amaliyotidan kelib chiqib, taxminlarni ilgari suradi. Aynan shu sharoitda vaziyatli yondashuv hamda tipik tergov vaziyatlarini o'rganishning roli namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishning asosiy maqsadi [7] jinoyat subyektini aniqlash va jinoyat hodisasini fosh etishdir. Shu munosabat bilan, dastlabki tergov bosqichida jinoyatchi shaxsi to'g'risidagi savollar vujudga keladi. Bu esa jinoyat subyektiga oid ma'lumotlar aks etuvchi tipik tergov vaziyatni alohida ajratib ko'rsatish mumkinligidan dalolat beradi. Shunday ma'lumotlarning hajmi jinoyat ishini qo'zg'atish hamda alohida tergov va tezkor-qidiruv harakatlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishga imkoniyat yaratadi.

Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish jinoyati bo'yicha tergov

vaziyatining to'g'ri aniqlanishi quyidagilarga imkon beradi:

1) jinoyat protsessi normalari hamda kriminalistika ilmining zamonaviy yutuqlariga asoslangan holda taktik yechimlarning tanlanishini asoslash; 2) tergovchi va tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi organning hamkorlikdagi harakatlarini rejalashtirish va tashkil etish; 3) asoslangan taxminlarni ishlab chiqish hamda ularni tekshirish uchun zarur bo'lgan tergov harakatlarini o'tkazish.

Kompyuter tizimidan foydalanib sodir etilgan jinoyatning mavjudligini, nainki ma'lum harakatlari bilan, balki oqibatlar bilan ham bog'laydigan bo'lsa, (boshqa bir harakatning amalga oshirilishi natijasida emas, balki) qonunda qayd etilgan aynan shu qilmishni sodir etish natijasida tegishli oqibatlar kelib chiqqanligini aniqlash kerak bo'ladi, chunki qonunning ma'nosiga binoan oqibatni oddiy tarzda yuzaga kelishi emas, balki uni mazkur qilmishning da'vati asosida vujudga kelishi aynan shu qilmishdan paydo bo'lishini anglatishidir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, hozirda ushbu masalalar bo'yicha tergov va sud amaliyotini tizimlashtirilgan umumlashtirishning yo'qligi, tergovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalarining yetishmasligi va o'z vaqtida bajarilmasligi mazkur jinoyatlarga qarshi samarali kurashish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va jamoatchilikni xabardor qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – Toshkent. O'zbekiston, 2017. 34-b.
2. Estimated cost of cybercrime worldwide 2018–2029. <https://www.statista.com/forecasts/1280009/cost-cybercrime-worldwide>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2017 йил 9 февраль кундаги Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, ошуда ва фаровон ҳаёти ҳимоя қилинмоғи керак /<https://president.uz/uz/lists/view/235>
4. Мещеряков В. А. Основы методики расследования преступлений в сфере компьютерной информации: Автореф. дис. док.юрид. наук. – Воронеж, 2001.39 с.
5. Тлиш А. Д. Проблемы методики расследования преступлений в сфере экономической деятельности, совершаемых с использованием компьютерных технологий и пластиковых карт: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – Краснодар, 2002. 29 с.
6. Драпкин Л.Я. Проблемные ситуации и основные методы их разрешения в процессе расследования // Проблемы эффективности раскрытия и расследования преступлений: межвуз. сб. науч. трудов. – Свердловск: Изд-во УрГУ. Вып. 72.
7. T.N.Butunbayev Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanishni tergov qilish metodikasi: shakllanishi, rivojlanishi va takomillashtirish istiqbollari/ Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)... dis. avtoref. – T., 2025. 42-bet.

Ismoil SAYDOQULOV,

*Ichki ishlar vazirligi Namangan akademik litseyi direktorining
ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), mayor*

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGINING AKADEMIK LITSEYLARIDA YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylarda tahsil olayotgan yoshlarning ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish jarayonining ijtimoiy-falsafiy asoslari, uning mazmun-mohiyati hamda amal qilish mexanizmlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy jamiyatda yoshlar ongini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, xususan, ijtimoiy institutlar, ma'naviy qadriyatlar tizimi, milliy va umuminsoniy prinsiplarning uyg'unligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: *ma'naviy tarbiya, ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar, yoshlar siyosati, akademik litsey, tarbiya tizimi, shaxs kamoloti, ma'naviy immunitet.*

Аннотация: в данной статье комплексно анализируются социально-философские основы процесса развития духовно-нравственного воспитания молодёжи, обучающейся в академических лицеях системы Министерства внутренних дел, его содержание, сущность, а также механизмы реализации. В исследовании с научно-теоретической точки зрения освещаются факторы, влияющие на формирование сознания молодёжи в современном обществе, в частности, социальные институты, система духовных ценностей, а также гармония национальных и общечеловеческих принципов.

Ключевые слова: *духовно-нравственное воспитание, социально-философские механизмы, молодёжная политика, академический лицей, система воспитания, развитие личности, духовный иммунитет.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the socio-philosophical foundations of the process of developing the spiritual and moral education of youth studying in academic lyceums within the system of the Ministry of Internal Affairs, as well as its content, essence, and mechanisms of implementation. The study scientifically and theoretically examines the factors influencing the formation of youth consciousness in modern society, including social institutions, the system of spiritual values, and the harmony of national and universal principles.

Key words: *spiritual and moral education, socio-philosophical mechanisms, youth policy, academic lyceum, educational system, personal development, spiritual immunity.*

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy transformatsiyalarning murakkablashuvi sharoitida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, davlatning xavfsizlik tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari, xususan, akademik litseylar faoliyati doirasida yoshlarning ma'naviy tarbiyasini takomillashtirish strategik zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, mazkur tizimda tahsil olayotgan yoshlar kelajakda jamiyatda ijtimoiy tartibni ta'minlash, huquqiy ongni mustahkamlash va davlat barqarorligini saqlash kabi mas'uliyatli vazifalarni bajaruvchi shaxslar sifatida shakllanadi [1]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish jarayoni oddiy pedagogik faoliyat doirasidan chiqib, murakkab ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu mexanizmlar o'z ichiga ijtimoiy institutlar faoliyati, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong shakllari, normativ-huquqiy muhit hamda tarbiyaviy ta'sir vositalarining o'zaro

integratsiyasini qamrab oladi. Mazkur jarayonni chuqur tahlil qilish esa uning nazariy asoslarini aniqlash, amaliy samaradorligini oshirish hamda zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkonini beradi[2]. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda "ma'naviy tarbiya" tushunchasi insonning ichki dunyosi, qadriyatlari, e'tiqodi, axloqiy me'yorlari hamda ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon shaxsning individual xususiyatlari bilan bir qatorda jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, madaniy merosi va tarixiy tajribasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, ma'naviy tarbiya jarayonini tahlil qilishda uni faqat ta'lim tizimi doirasida emas, balki kengroq ijtimoiy kontekstda, ya'ni ijtimoiy tizimning ajralmas elementi sifatida o'rganish zarurati yuzaga keladi[3]. Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida ma'naviy tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u umumta'lim muassasalaridan farqli ravishda muayyan kasbiy yo'naltirilganlik, intizomiy tizimning kuchli bo'lishi hamda huquqiy ongni shakllantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa mazkur muassasalarda ma'naviy tarbiyani rivojlantirishning o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini ishlab chiqishni



talab etadi. Xususan, bu yerda tarbiya jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning ichki e'tiqodi, mas'uliyat hissi, vatanparvarlik tuyg'usi va ijtimoiy faolligini shakllantirishga qaratiladi[4]. Mazkur muammo doirasida ijtimoiy-falsafiy mexanizm tushunchasini aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar – bu jamiyatda muayyan ijtimoiy jarayonlarni tartibga soluvchi, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi omillar, vositalar hamda munosabatlar tizimi bo'lib, ular orqali ma'naviy qadriyatlar shakllanadi, uzatiladi va mustahkamlanadi. Ushbu mexanizmlar tarkibiga ijtimoiy institutlar (oilalar, ta'lim muassasalari, davlat organlari), ijtimoiy ong shakllari (axloq, huquq, din, mafkura), kommunikativ jarayonlar hamda madaniy amaliyotlar kiradi[5]. Bugungi kunda yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar doirasi kengayib borayotgani, ayniqsa, virtual makon va global axborot oqimlarining kuchayishi ularning ma'naviy tarbiyasiga yangi tahdid va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, mazkur jarayonni boshqarishda kompleks, tizimli va integrativ yondashuvni talab qiladi[6]. Yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish masalasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ham muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda mamlakatda yoshlar siyosatini takomillashtirish, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga

oshirilmoqda. Bu jarayonda Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari ham faol ishtirok etib, yoshlarni nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda[7]. Shu bilan birga, mazkur sohada mavjud muammolarni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Xususan, ma'naviy tarbiya jarayonining tizimliliigi yetarli darajada ta'minlanmaganligi, ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarning amaliyotga yetarlicha tatbiq etilmayotgani, pedagogik kadrlarda innovatsion kompetensiyalarning yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish, nazariy asoslarni chuqurlashtirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi[8]. Mazkur maqolaning dolzarbligi aynan yuqorida qayd etilgan omillar bilan belgilanadi. Ya'ni, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini kompleks o'rganish, ularning nazariy asoslarini aniqlash va amaliy samaradorligini oshirish bugungi kunning muhim ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini o'rganishda xorijiy ilmiy adabiyotlar muhim nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi. Xususan, zamonaviy pedagogika va ijtimoiy falsafa doirasida olib borilgan tadqiqotlarda shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishi, uning ijtimoiylashuv jarayonidagi determinantlari hamda institutsional omillar ta'siri chuqur tahlil etilgan. Bu borada amerikalik olim Lawrence Kohlberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, shaxsning ma'naviy-axloqiy

kamoloti bosqichma-bosqich rivojlanadigan kognitiv jarayon bo'lib, unda ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi va normativ qadriyatlar tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kohlbergning konsepsiyasida axloqiy qaror qabul qilish jarayoni individual ong darajasidan boshlab, jamiyat tomonidan qabul qilingan universal etik tamoyillar darajasigacha yuksaladi. Mazkur yondashuv Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida ta'lim olayotgan yoshlarning huquqiy va axloqiy ongini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u tarbiya jarayonini faqat tashqi nazorat mexanizmi sifatida emas, balki ichki e'tiqod va ongli tanlov tizimi sifatida talqin etadi[9]. Shu bilan birga, ingliz olimi Anthony Giddens tomonidan ilgari surilgan strukturatsiya nazariyasi ham yoshlar ma'naviy tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini anglashda muhim metodologik yondashuvni taqdim etadi. Giddensning fikricha, ijtimoiy tizimlar doimiy ravishda inson faoliyati orqali qayta ishlab chiqiladi va shu jarayonda ijtimoiy tuzilmalar hamda individlar o'rtasida dialektik bog'liqlik yuzaga keladi. Bu nazariya asosida qaralganda, akademik litseylar faqat bilim beruvchi muassasa emas, balki ijtimoiy tuzilmaning muhim elementi sifatida yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi faol institut sifatida namoyon bo'ladi. Giddensning strukturatsiya konsepsiyasi tarbiya jarayonida subyekt va struktura o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ochib berib, yoshlarning faolligi, tanlovi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda muhim nazariy asos yaratadi[10]. Mazkur ikki olimning ilmiy qarashlari o'zaro uzviy bog'liq holda yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini kompleks tushunishga imkon beradi. Agar Kohlberg nazariyasi shaxsning ichki axloqiy rivojlanish bosqichlarini yoritib bersa, Giddens yondashuvi ushbu jarayonning ijtimoiy kontekstini, ya'ni institutlar va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini asoslab beradi. Natijada, yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish jarayoni individual ong evolyutsiyasi bilan bir qatorda ijtimoiy tizimning faol ta'siri ostida kechadigan murakkab va ko'p qatlamli jarayon sifatida talqin etiladi.

Metodologik qism. Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini tadqiq etishda tizimli yondashuv, strukturaviy-funksional tahlil, dialektik metod, komparativ (qiyosiy) tahlil, kontent-tahlil, sotsiologik kuzatuv hamda interpretativ (talqin etish) metodlari kompleks tarzda qo'llanildi, bunda ma'naviy tarbiya jarayoni ko'p darajali ijtimoiy tizim sifatida qaralib, uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va funksional munosabatlar aniqlashtirildi, shuningdek, yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarining shakllanish dinamikasi ijtimoiy institutlar, xususan, ta'lim muassasalari, oila va davlat siyosati kontekstida tahlil qilindi, dialektik yondashuv asosida esa mazkur jarayonning ichki ziddiyatlari, rivojlanish tendensiyalari va transformatsion xususiyatlari ochib berildi, komparativ metod orqali milliy va xorijiy tajribalar o'zaro qiyoslanib, samarali mexanizmlar identifikatsiya qilindi, kontent-tahlil yordamida normativ-huquqiy hujjatlar, o'quv dasturlari va tarbiyaviy materiallar

mazmuni tizimli ravishda o'rganildi, sotsiologik kuzatuv va empirik yondashuvlar orqali esa akademik litseylar muhitida yoshlarning ijtimoiy xulq-atvori, qadriyatlarga munosabati va ma'naviy rivojlanish darajasi aniqlanib, olingan natijalar interpretativ tahlil asosida umumlashtirildi hamda ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish jarayoni ko'p komponentli ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar tizimi orqali amalga oshiriladi va unda ijtimoiy institutlar, normativ-huquqiy asoslar, pedagogik yondashuvlar hamda individual psixologik omillar o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi, bunda ayniqsa ta'lim muassasasining institutsional muhiti yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda determinant omil sifatida namoyon bo'lib, undagi intizomiy tizim, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar hamda huquqiy madaniyatni singdirishga qaratilgan pedagogik faoliyat yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi, shuningdek, tadqiqot davomida ma'naviy tarbiya samaradorligi bevosita o'qituvchi va tarbiyachilarning professional kompetensiyasi, ularning ijtimoiy-falsafiy tafakkur darajasi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyati bilan uzviy bog'liqligi isbotlandi, bundan tashqari, yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, vatanparvarlik g'oyalarining tizimli ravishda singdirilishi hamda ijtimoiy faollikni rag'batlantiruvchi muhitning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlanib, ayni paytda ayrim holatlarda tarbiya jarayonining formal xarakter kasb etishi, metodik ta'minotning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi va individual yondashuvning sustligi kabi muammolar mavjudligi ham qayd etildi, natijada esa ma'naviy tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun tizimli integratsiyalashgan yondashuvni kuchaytirish, innovatsion metodlarni keng joriy etish hamda ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarni amaliyotga chuqurroq tatbiq etish zarurligi ilmiy asosda belgilab berildi.

Muhokama. Yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini tahlil qilish jarayonida xorijiy ilmiy maktablar vakillari o'rtasidagi nazariy polemikalar muhim metodologik ahamiyat kasb etadi, xususan, Lawrence Kohlberg va Carol Gilligan o'rtasidagi ilmiy bahslar mazkur muammoning turli qirralarini yoritishda konseptual asos vazifasini bajaradi. Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, shaxsning ma'naviy kamoloti universal va ierarxik bosqichlar orqali amalga oshadi hamda unda adolat, qonuniylik va umumiy axloqiy prinsiplarga asoslangan ratsional fikrlash ustuvor ahamiyatga ega. U yoshlar tarbiyasida normativ tizimlarning ustuvorligini ta'kidlab, ijtimoiy institutlar orqali shakllantiriladigan axloqiy me'yorlarni markaziy o'ringa qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida intizom, qonuniylik va huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar aynan Kohlberg konsepsiyasi bilan muvofiqlashadi. Biroq, Gilligan tomonidan ilgari surilgan "g'amxo'rlik etikasi"

konsepsiyasi mazkur yondashuvni tanqidiy qayta ko'rib chiqadi. Uning fikricha, axloqiy qaror qabul qilish jarayoni faqat ratsional va universal prinsiplarga emas, balki insonlar o'rtasidagi munosabatlar, empatiya va ijtimoiy bog'liqlik omillariga ham tayanadi. Gilligan axloqiy rivojlanishni ko'proq kontekstual va relatsion jarayon sifatida talqin qilib, individual tajriba va ijtimoiy aloqalarning rolini kuchaytiradi. Bu yondashuv yoshlar ma'naviy tarbiyasida insoniylik, hamdardlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi komponentlarni chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur ikki nazariya o'rtasidagi polemika aslida ma'naviy tarbiya jarayonining dualistik tabiatini ochib beradi, ya'ni bir tomondan u normativ-huquqiy tizimlar orqali tartibga solinadigan obyektiv jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan subyektiv tajriba va ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadigan murakkab fenomen hisoblanadi. Shu bois, faqat bir tomonlama yondashuv asosida samarali natijaga erishish mushkul bo'lib, kompleks integrativ modelni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida olib borilgan tadqiqot natijalari ham aynan ushbu nazariya qarama-qarshiliklarning amaliy aksini ko'rsatadi. Ya'ni, agar tarbiya jarayonida faqat intizom va qoidalarga asoslangan yondashuv ustuvor bo'lsa, yoshlarning ichki motivatsiyasi va ma'naviy e'tiqodi yetarli darajada shakllanmasligi mumkin; aksincha, faqat empatiya va ijtimoiy munosabatlarga

urg'u berilgan holatlarda esa huquqiy ong va tartib-intizom darajasi pasayishi ehtimoli mavjud. Shu jihatdan, mazkur muammo bo'yicha ilmiy bahslar tarbiya tizimini optimallashtirishda muhim nazariy yo'nalishlarni belgilab beradi. Natijada, zamonaviy yondashuvlar asosida yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishda normativlik va relatsionlik tamoyillarini uyg'unlashtirgan integrativ modelni qo'llash zarurligi asoslanadi. Bunday model ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar tizimida ham qonuniylik, ham insonparvarlik prinsiplarini birlashtirib, yoshlarning nafaqat ijtimoiy jihatdan moslashgan, balki ichki e'tiqodga ega, ma'naviy yetuk shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish murakkab, ko'p darajali va tizimli ijtimoiy-falsafiy jarayon ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ma'naviy tarbiya nafaqat pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi, balki ijtimoiy institutlar, normativ-huquqiy tizimlar, madaniy qadriyatlar hamda individual ong o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadigan kompleks mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun uni alohida komponentlar emas, balki yagona integratsiyalashgan tizim sifatida o'rganish va boshqarish zarurati aniqlashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маманазаров С. И. Ёшлар тарбияси: маънавий қадриятлар ва “оммавий маданият” // Экономика и социум. 2025. – №. 3-1 (130). С. 691–694.
2. Goziyeva, I., & Shohbozbek, E. (2025). Pedagogik jarayonda talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlar. *Global Science Review*, 4(3), 348–355.
3. Темирова С. В., Шарифбаев Ҳ. Ҳ. Ёшлар тарбияси ва умуминсоний қадриятлар тушунчасининг мазмун-моҳияти // Academic research in educational sciences. 2022. Т. 3. – №. 10. С. 350–359.
4. Gulbahor, O., & Shohbozbek, E. (2025). O'zbekistonda zamonaviy pedagogik texnologiyalari orqali uzluksiz ta'limni rivojlantirish. *Global Science Review*, 3(4), 77–82.
5. Фуламов О. Ёшлар маънавий камолотида ижтимоий-маданий омиллардан фойдаланиш истиқболлари // Academic research in educational sciences. 2024. Т. 5. – №. 5. С. 35–42.
6. Gulhayo, M., & Shohbozbek, E. (2025). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali uzluksiz ta'limni rivojlantirish. *Global Science Review*, 3(4), 117–124.
7. Ахмедова Р. С., Махмудова М. С. Ёш авлодни тарбиялашда тасвирий санъат асарларининг роли // Интернаука. 2018. Т. 14. – №. 48 часть 2. С. 74.
8. Maxliyo, S., & Shohbozbek, E. (2025). Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda maktabgacha ta'limning o'rni. *Global Science Review*, 4(4), 83–89.
9. Yusupova N. et al. Маънавий меросимизда динлараро тотувлик ва бағрикенглик талқини // Moturidiylik. 2025. Т. 5. №. 1. С. 4–10.
10. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish. *Global Science Review*, 4(5), 221–228.

To'liqin G'UZIBEKOV,
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
 Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası dotsenti,
 podpolkovnik*

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TA'LIM-TARBIYADA PSIXOLOGIK OMILLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

Annotatsiya: o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz siyosati oldida turgan ustuvor masalalardan sanalib kelgan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning o'ta-onalari, ta'lim muassasalarining o'rni, o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarning faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar hamda o'quvchilarning kasb tanlash motivlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *motiv, psixologik omillar, o'quvchilar, xulq - atvor, prognoz, motivatsiya, psixologik tanlov, kasb tanlash, komponentlar.*

Аннотация: профессиональная ориентация молодого поколения всегда считалась одним из приоритетных вопросов, стоящих перед политикой нашей страны. Для реализации этого процесса большое значение имеет деятельность родителей наших детей, роль образовательных учреждений, педагогов и практикующих психологов. В данной статье представлена информация о существующих проблемах в правильной ориентации студентов на профессию, а также о мотивах выбора профессии студентами.

Ключевые слова: *мотив, психологические факторы, студенты, поведение, прогноз, мотивация, психологический выбор, выбор профессии, компоненты.*

Annotation: the orientation of the growing young generation to a profession has always been one of the priority issues facing our state policy. The role of our children's parents, educational institutions, the activities of teachers and practicing psychologists are of great importance for the implementation of this process. This article presents information on the existing problems in the correct orientation of students to a profession, as well as on the motives of students in choosing a profession.

Key words: *motive, psychological factors, students, behavior, prognosis, motivation, psychological choice, choice of profession, components.*

Kirish. Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga

talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish, ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi.

Shu o'rinda asosiy urg'uning oilaga berilishi ham bejiz emas. Oila muqaddas xilqat sifatida ta'riflanishi, **"Vatan oiladan boshlanur"** deb aytilishi oilaning hayot mazmuniga aylanganligi, tarixiy jarayonlar vositasida bugungi kunimizga o'zining urf-odatlarini, an'analari, milliyligi bilan yetib kelganligi diqqatga sazovordir. Har bir oilaning mazmun-mohiyati uning ichidagi ijtimoiy-ma'naviy, ma'rifiy hamda bola tarbiyasidagi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizning dunyo miqyosida tanilishida avvalambor oilaning shakllanishiga, yosh avlodni tarbiyalashdagi yo'nalishlarga, ijtimoiy-ma'naviy, diniy, axloqiy va jismoniy tarbiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligi natijasida, ajdodlarimizning ulug' nomlari hanuzgacha yer kurrasining deyarli barcha rivojlangan davlatlarda ismlari yanada yuqori pog'onalarga ko'tarilmoqda.

Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi, Amur Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy va boshqa minglab olim-u





mutafakkirlarimizning nomlari jahonga doston bo'lganligi ayni haqiqatdir.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yuqoridagi buyuk ajdodlarimiz haqlarida juda ko'p ijobiy fikrlarni aytibgina qolmasdan balki, har bir viloyat va shahar, tumanlardagi tarixiy obidalarini yanada rivojlantirish orqali ajdodlarimizning xotiralarini yanada shod etmoqdalar. Minglab sayyohlar bilan birgalikda yoshlarimiz diyorimizni o'rganmoqda va olamga ziyo tarqatmoqda.

Bugungi kunda yangi O'zbekiston strategiyasi va Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy taraqqiyot ishlari xalq manfaatlar uchun ekanligi va unda bola tarbiyasiga e'tibor kelajakka zamin yaratish hamda harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasiga o'tishga yo'l ochadi.

Shuningdek, har bir ota-ona albatta farzandini barkamol inson bo'lib voyaga yetishini istaydi. Shunday ekan, avvalambor, oilada onalar shaxsan farzand tarbiyasi bilan o'zlari shug'ullanishi zarur. Al-Buxoriy hazratlarining onalari aynan farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganliklari sababli ul aziz onadan buyuk olim va avliyo inson dunyoga kelganligi butun olamga ma'lum.

Sharq mamlakatlari ulamolari, mutafakkirlari bola tarbiyasiga juda katta e'tibor berib, xalq pedagogikasining o'zagini shakllantirishga hissa qo'shganlar. **"Bir bolaga yetti mahalla javobgar"** degan xalq naqli o'z ichiga ko'p ma'noni qamrab olgan.

Mahalla, oila va maktab hamda keng jamoatchilik vakillarining hamkorligi bo'lajak avlodning qanday bo'lishi, ota-ona va yaqin qo'shnilarining tanbehlari yo'nalishlarining barchasi faqat yaxshi niyatda bo'lishini

ko'rsatgan. Bu esa o'z navbatida, bolada ruhiy tarbiyaning shakllanishiga ko'mak beradi.

Muhokama va natijalar. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarni kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarning oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz. Texnologiya fani o'qituvchisi texnologik ta'lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma'lumotlarni muayyan mavzularga bog'lagan holda o'quvchilarga yetkazishi lozim. O'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to'garaklar alohida o'rin egallaydi. Bunday to'garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to'garaklarni kiritish mumkin. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik,

ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o'qituvchisi o'z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o'rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o'qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o'quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar kollejlari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega.

Mehnat fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o'rnini haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda hosil bo'ladi. Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun: turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

– texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;

– o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash;

– jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o'quvchilarning



qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;

– o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, maktab o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish. Bunday hamkorlik natijasida o'quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan kasblar targ'ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo'ladi.

Texnologiya o'qituvchisi maktab amaliyotchi psixologi o'z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

– o'quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish;

– kasblarning demografik xususiyatlari haqida ma'lumot berish;

– o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;

– o'quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyan kasblar bo'yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirish;

– o'quvchilarni o'z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini bilan tanishtirish;

– o'quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o'rnini haqida ma'lumot berish;

– o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo'llash bo'yicha suhbatlar o'tkazish;

– o'quvchilarni noto'g'ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;

– o'quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va sinab ko'rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;

– o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish;

– o'quvchilarni kasbga yo'llash jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko'rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;

– o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis



o'tkazish va h.k.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan targ'ibot- tashviqot ishlarining o'z ahamiyati bor.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz bolaga hech qachon do'q-po'pisa qilmaslikni, ularga nisbatan zo'ravonlik va qo'pollik qilinmaganligini, ohista shirin ovoz bilan **“yomon bo'ladi”** degan birgina chiroyli ibora orqali tarbiya o'g'itlarini singdirganliklarini, shu bilan birgalikda, notanish kishilarni ko'rganda **“Assalomu alaykum”** degan ibora bilan muomalada bo'lishliklarini, “O'zlaridan katta insonning oldilarini qiymaslik” kabi milliy urf-odatlarini singdirib kelganlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **77-moddasida:** **“[OKO3:**

1.04.00.00.00 Оила қонунчилиги / **04.04.00.00** Ота-оналар ва болаларнинг ҳамда бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари. Алимент мажбуриятлари / **04.04.04.00** Ота-оналар ҳуқуқ ва мажбуриятлари]

Ота-оналар ва ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar” deyilgan.

LexUZ sharhi

Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 73 ва 96-моддалари, Ўзбекистон Республикаси



Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 47, 474-моддалари, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 122-моддаси.

[OKO3:

1.04.00.00.00 Оила қонунчилиги / **04.05.00.00** Ота-оналар қаровисиз қолган болаларни тарбиялаш шакллари / **04.05.01.00** Ота-оналар қаровисиз қолган болаларни аниқлаш ва жойлаштириш]

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasida (Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasida ota-ona va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) majburiyatlarini bajarmaslik uchun javobgarlik masalasi kiritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 01.05.2023-yil <https://lex.uz/docs/6445145>.
2. Ўз.Р-нинг 2014 йил 14 майдаги “Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида” ЎРҚ – 371-сон Қонуни.
3. Ўз.Р Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сон Фармони.
4. Ўз.Р Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони.
5. Ўз.Р Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида”ги ПФ-29-сон Фармони.
6. N.A. Aripova, L.A. Xolmamatova, N.B. Qurbonova kasbiy psixologiya. – Toshkent, 2018-y.
7. F. I. Haydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009-y.
8. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlar. “Xalq ta'limi” jurnali. 2005. №5.
9. Maxmudova .D. “O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogik faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash”. Xalq ta'limi jurnali. № 3-son.

Yoshin HAKIMOV,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti jurnalistika fakulteti harbiy va
sport jurnalistikasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

HARBIY KONTENT JOZIBADORLIGIDA SARLAVHANING ROLI

Annotatsiya: maqolada harbiy mavzudagi axborotlarning attraktivligini oshirishda jozibador sarlavhalardan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, bu borada qo'llash mumkin bo'lgan zarur tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *harbiy, sarlavha, nashr, attraktivlik, gazeta, joziba.*

Аннотация: в статье раскрывается важность использования привлекательных заголовков для повышения attractiveness информации на военную тематику. Также приведены необходимые рекомендации, которые можно использовать в этом отношении.

Ключевые слова: *военный, заголовок, публикация, привлекательность, газета, очарование.*

Annotation: the article reveals the importance of using captivating headlines to enhance the attractiveness of military-themed information. There are also necessary recommendations that can be applied in this regard.

Key words: *military, headline, publication, attractiveness, newspaper, charm.*

Sarlavha kontentning 80% muvaffaqiyati. U kontentning birinchi ta'sir kuchi yoki attraktivligi (jozibadorligi, o'ziga jalb qilishi, diqqat-e'tiborni tortishi) hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy nashrlardagi sarlavhalar – xoh u bosma, xoh elektron nashrda bo'lsin, odatdagilardan yorqin va kutilmagan bo'lishi kerak. Kommunikativ yo'nalishi aniq ifodalangan attraktiv sarlavhalar sohaviy nashr o'ziga xosligining muhim xususiyati bo'lib, bu harbiy kontent matnining ta'sir ko'lami kafolati sanaladi. Sarlavhaning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- Qiziqish uyg'otish: jalb qiluvchi sarlavhalar ma'lumotni o'qishga bo'lgan ehtiyojni paydo qiladi. U matnning mohiyatini 5–15 so'zda ifodalashi va o'quvchiga maqolani o'qish uchun sabab berishi kerak.

- Vizual ustunlik: yirik va qalin shriftlar vositasida qo'yilgan sarlavha sahifadagi boshqa elementlardan alohida ajralib, diqqatni tortib turadi.

- Va'da berish: sarlavha matn ichidagi muhim mazmun yoki foydali ma'lumotni oldindan ko'rsatishi, shunga ishora qilishi kerak.

- Aniqlik: u nafaqat jozibali, balki mazmunli ham bo'lishi lozim.

Gazetada sarlavhalar qisqa, aniq va bayoniy (deklarativ) bo'lishi talab etiladi. U voqeaning mohiyatini ochib berishi shart (masalan: "Razvedkachilarimiz xalqaro musobaqa g'olibligini qo'lga kiritdi").

Jurnalda sarlavha ko'proq metaforik, intriga uyg'otuvchi va hissiy bo'lishi mumkin. U o'quvchini o'ylantirib qo'yishi yoki hayratlantirishi kerak (masalan: "Tog'dagi to'qnashuv").

Asar yoki maqolaga sarlavha qo'yish mas'uliyati haqida filologiya fanlari doktori, professor Yusuf Hamdamov shunday fikr bildirgan: "Sarlavha maqolaning mazmuniga mazmun, saviyasiga saviya qo'shadi. Ma'lum materialning o'qishli, o'quvchi e'tiborini tortadigan bo'lishida sarlavhaning ahamiyati katta. Shu bois ko'pchilik ijodkorlar mazmunli, o'ziga jalb qiladigan sarlavha topishga

intilishadi" [1].

Gazeta tarkibiy qismlarining jozibali xususiyatlarini o'rgangan rus olimi K. Simanovskaya shunday ta'kidlaydi: "Gazetada sarlavha eng kuchli, alohida ajratib ko'rsatilgan pozitsiyani egallaydi. Bu o'quvchi darhol e'tibor qaratadigan jihat. Sarlavha gazetaning ajralmas qismi bo'lib, quyidagi lingvistik funksiyalarni bajaradi: informatsion (matn haqida ma'lumot beradi), pragmatik (adresatning – ma'lumotni qabul qiluvchining aqli va hissiyotlariga ta'sir qiladi), jozibali (o'quvchi e'tiborini tortadi)" [2].

T. Monina gazeta sarlavhalarida jozibadorlik funksiyasini pragmatik jihatdan ko'rib chiqqan. Tadqiqotning bir qismi sifatida u o'quvchining sarlavhani idrok etishini reklama ta'siri modeliga o'xshash 4 bosqichga ajratishni taklif qiladi: **diqqat, qiziqish, istak, harakat**. O'quvchining sarlavha bilan o'zaro ta'sirining birinchi bosqichi – bu diqqatni jalb qilish, ya'ni sarlavha qanchalik diqqatni jalb qila olishi masalasi. Agar sarlavha qiziqish uyg'otmasa, o'zaro ta'sir shu bilan tugaydi [3].

I. Xoroshunovanning qayd etishicha, jurnalistik matn sotilishi kerak bo'lgan tovarga aylangan. Buning uchun sizga reklama kerak. Shu sababli, tovarlar va xizmatlarning tijorat reklamasida bo'lgani kabi, ommaviy axborot vositalari matnlari ham nashrga e'tiborni jalb qilish va qiziqishni saqlab qolish uchun turli xil vositalardan foydalana boshlagan [4].

N. Gedgafova jozibadorlikni axborot tarqatish talqinining o'ziga xos xususiyatlari bilan ta'minlash mumkin, deb hisoblaydi. Jozibadorlik hodisaning dialogik xususiyatiga asoslanadi, lekin uni qo'zg'ata olish muhim. Xabar muallifining vazifasi – adresatni qiziqitirish, shunda u material havolasini bosish orqali javob beradi va shu bilan dialogga kirishadi [5].

J. Sladkevich marketologlar, tahlilchilar va tilshunoslarning, jumladan, Y. Golubeva, A. Nikolayeva va N. Pavlikning kuzatishlariga tayangan holda o'z asarlarida



jozibali sarlavhani belgilash yoki yaratish mumkin bo'lgan xususiyatlar to'plamini tasniflaydi:

– “bu”, “mana bu”, “bular” kabi ko'rsatish olmoshlarini qo'llash;

– “nima”, “kim”, “qanday” va boshqa so'roq olmoshlari hamda qo'shimchalariga mantiqiy urg'u berish;

– xabarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi masofani qisqartirish: maxfiy ohang, o'quvchini yaqin olib murojaat qilish, birinchi shaxs tilidan hikoya qilish;

– tafsilotlarni oshkor qilmasdan, asosan, sintaktik manbalar orqali intriga yaratish strategiyalari: o'quvchini havolani bosishga majbur qiladigan to'liq bo'lmagan jumla;

– tinish belgilaridan nostandart foydalanish (undov va savol belgilarining ko'pligi, ko'p nuqta va boshqa grafikalar – masalan, xeshlar);

– leksik va stilistik ifoda vositalaridan foydalanish, nashrning shov-shuvli tabiati va (psevdo) ahamiyatini to'g'ridan to'g'ri ko'rsatishga imkon beruvchi giperbola, mubolag'a, yorqin epiteta: “qichqiriq” sarlavhalari xususiyat yoki simulyatorning kuchayish sxemasini o'z ichiga olgan baholovchi lug'atga boy so'zlar (“sezgi”, “dahshat”, “shok”, “g'azab”); “ishonmoq”, “ko'rmoq”, “ko'rinmoq”, “g'azablantirmoq”, “aqldan ozgan”, “bebaho”, “yaqin”, “yagona”, “mashhur”, “aql bovar qilmaydigan”, “bahaybat”, “maftunkor”, “nodir”, “sir”, “samarali” va boshqa shunday so'zlardan foydalanish);

– og'zaki ta'sirning to'g'ridan to'g'ri taktikasini, asosan, buyruq (murojaatlar, buyruq maylidagi harakat fe'llari va boshqalar) orqali qo'llash;

– “qichqiriq” sarlavhasida miqdoriy ko'rsatkichlarning mavjudligi tarkibni hech bo'lmaganda kursoriy ko'rishni (5, 10, 20, 100 marta) ta'minlashini hisobga olish;

– sarlavhada intertekstualliklar (frazologik birliklar, aforizmlar, iqtiboslar va kvazitsitatalar, iboralar) qo'llanilishi unga o'ynoqi tus beradi, maftunkor vazifani bajaradi va o'quvchini jalb qilish imkonini beradi;

– yosh cheklovlarini eslatib o'tish (“18+”) havoladagi ma'lumotlarning “tanlanganligini” ta'kidlaydi va kontentga qiziqish uyg'otadi;

– “ko'zni to'xtatuvchi” (ko'zni to'xtatuvchi element) rolini (“aystopper”) multimodal resurslar bajaradi: yorqin GIF animatsiyalari; bo'rttirilgan yuz ifodalari bo'lgan odamlarning yuzlari; multfilmlar va filmlardan olingan kadrlar, keyingi mazmunni talqin qilish burchagini belgilaydi [6].

A. Kinderknext va V. Stepanyuk ommaviy axborot vositalarining ko'plab tadqiqotlariga tayanib, maqolani boshqalar fonida ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladigan sarlavha yordamida e'tiborni jalb qilishning 19 asosiy usulini tasnif qilgan:

1. Hissiy-emotsional va baholovchi lug'at. Sarlavhalar birinchi navbatda, yorqin va o'ziga tortadigan bo'lishi

kerak. Bunga yoshlarga xos jarangdorlik, “sarlavhali jargon”, haqoratli ma’noga ega bo’lgan hissiy lug’at kabilar kiradi;

2. Ekspressiv leksika, barcha turdagi troplar (epitetlar, metafora, metonimiya, personifikatsiya, sinekdoxa va boshqalar);

3. Frazеologizmlar va o’zgartirilgan frazeologik birliklar. L. Ismoilovanning so’zlariga ko’ra, bunday sarlavhalarining o’ziga xosligi shundaki, ular e’lon qilingan materialning mazmunini oshkor etmasdan, intrigani saqlab qolgan holda obrazli ta’rif va baho beradi [7];

4. O’quvchining qiziqishini uyg’otadigan klishe va stereotiplar (shtamplar).

5. Turli stilistik usullar: so’z o’yinlari, qochirim, kinoya, sarkazm, til o’yinlari;

6. Stilistik xeterojenlik yoki uslubiy xilma-xillik (bu bitta matn yoki nutq ichida tilning turli uslubiy qatlamlariga, masalan, kitobiy va so’zlashuv uslubiga mansub elementlarning aralashib kelishi). Bu boshqa stilistik vositalardan alohida ko’rib chiqilishi kerak, chunki stilistik xeterojenlik ham, stilistik qorishtirish ham jamiyatning turli qatlamlarini axborot bilan ta’minlash vositasidir;

7. Chet tili leksikasi;

8. Neologizmlar va okkazonalizmlar;

9. Mashhur kishilarning ism va familiyalari, o’z-o’zidan reklama vazifasini o’taydigan, o’quvchilarning qiziqishini uyg’otadigan va e’tiborini tortadigan turli unvonlar;

10. Brend tovar nomlari;

11. Qisqartmalar, abbreviaturalar, sarlavhaning qisqaligi;

12. Iqtiboslar va boshqa pretsedent matnlar, ularning o’zgartirilishi;

13. Foydali ma’lumotlarni taqdim etadigan sarlavhalar;

14. Modal konstruksiyalardan foydalanish (chaqiriq, harakatga undash);

15. Partsellyatsiya (gapning intonatsion jihatdan mustaqil bo’laklarga bo’linishi, grafik jihatdan mustaqil jumlarlar sifatida ajratilishidan iborat nutq shakli);

16. Tinish belgilari;

17. Ritm, qofiya;

18. Turli xil texnik dizayn variantlari, grafik o’ziga xosliklar: matn kursiv shaklda, tagiga chizish, noodatiy interval, bosh harflardan foydalanish, sarlavhaning hajmi, to’yinganligi va yorqinligi, sarlavha shrifti o’lchamini tanlash va h.k.;

19. Informativlik (informativity – bu ma’lumotning mazmundorligi, foydaliligi va yangiligini ifodalaydigan tushuncha bo’lib, u ma’lumot qanchalik muhim, tushunarli va harakatga undovchi ekanligini bildiradi. Ya’ni informativlik – ma’lumotning qabul qiluvchi uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini ko’rsatadi, uning “ma’lumoti” qanchalik yuqori bo’lsa, shunchalik informativ, xabardor hisoblanadi) [8].

Albatta, ushbu tavsiyalarning har birini va doimiy ham qo’llab bo’lmaydi. Ayniqsa, jiddiy nashr hisoblangan harbiy gazeta va jurnallarda o’ynoqi yoki yengil-yelpi sarlavhalardan foydalanish etik me’yorlarga to’g’ri kelmasligi bor gap. Ammo ko’rsatib o’tilgan tavsiyalar ichidan ma’qul hisoblanganlaridan foydalanilsa, bu harbiy kontent jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Hamdamov, O’zbekiston matbuoti rivojlanishining asosiy tamoyillari, monografiya, – Toshkent: Turon Iqbol, 2024.

2. Симановская К.И. Аттрактивная функция заголовков в газетном дискурсе // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. 2013. № 1 (114). С. 161–165.

3. Мони́на Т.С. Аттрактивная функция газетного заголовка. Современная парадигма гуманитарных исследований: проблемы филологии и культурологии: Сборник материалов Международной научно-практической конференции, Москва, 12–13 марта 2017 года / Под общей редакцией С.Г. Григоренко. – Москва: Издательство “Перо”, 2018. С. 22–28.

4. Хорошунова И.Б. “Реализация аттрактивной функции единиц разных уровней в русском языке (на материале заголовков новостных медиатекстов воронежских СМИ)” Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. 2020. №4 С. 74–77.

5. Гедгафова Н.А. “Языковая репрезентация категории аттрактивности в научно-популярном журнале путешествий”. Верхневолжский филологический вестник, 2018 1: 152–156.

6. Сладкевич Ж. Р. Деформация фактуальной информации в новостных вебресурсах с кликбейт заголовками // Публичная политика. 2019. – Том 3. № 1. С. 127–148.

7. Исмаилова Л. Г. Использование фразеологизмов в официальных СМИ Азербайджана // Национальная тематика в средствах массовой информации. 2014. Т. 8. № 6. С. 147–158.

8. Киндеркнехт А.С., Степанюк В.В. Способы привлечения внимания в заголовках СМИ // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2016. №8-2 (62). С. 94–97.

Dildoraxon GANIYEVA,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti (DSc);
Sayyoraxon TO'LANOVA,
Farg'ona tumani 1-son texnikumi o'qituvchisi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

RANG KOMPONENTLI SO'Z BIRIKMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI: BADIY MATNNING AMALIY TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada rang komponentli so'z birikmalarining lingvopragmatik xususiyatlari O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" hamda "The Great Gatsby" asarlari misolida amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida rang komponentli birliklarning semantik, pragmatik va emotsional-ekspressiv xususiyatlari badiiy matn asosida yoritiladi. Asarlardan olingan parchalar yordamida rang birliklarining ramziy ma'nolari, qahramon ruhiyatini ochishdagi o'rni va muallif estetik maqsadini ifodalashdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va ingliz badiiy tafakkuridagi rang konseptlarining o'xshash va farqli jihatlari jadval asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *rang komponenti, lingvopragmatika, badiiy matn, pragmatik ma'no, semantika, emotsional-ekspressivlik, ramziylik, metafora, rang konsepti.*

Аннотация: в данной статье лингвопрагматические особенности словосочетаний с цветовыми компонентами анализируются на примере произведений О'ткира Хошимова «Дела света» («Dunyoning ishlari») и романа The Great Gatsby Ф. Скотта Фицджеральда. В ходе исследования на основе художественного текста раскрываются семантические, прагматические и эмоционально-экспрессивные особенности цветочных единиц. С помощью фрагментов из произведений анализируются символические значения цветочных компонентов, их роль в раскрытии внутреннего мира персонажей, а также функции в выражении эстетической цели автора. Кроме того, в статье посредством сравнительного анализа показывается сходства и различия цветочных концептов в узбекском и английском художественном мышлении.

Ключевые слова: *цветочный компонент, лингвопрагматика, художественный текст, прагматическое значение, семантика, эмоционально-экспрессивность, символика, метафора, цветочный концепт.*

Annotation: this article analyzes the linguopragmatic features of color-component word combinations based on O'tkir Hoshimov's *Dunyoning ishlari* and F. Scott Fitzgerald's *The Great Gatsby*. The research highlights the semantic, pragmatic, and emotional-expressive characteristics of color units within literary texts. Through excerpts taken from the works, the symbolic meanings of color expressions, their role in revealing characters' psychological states, and their functions in expressing the author's aesthetic purpose are examined. In addition, the similarities and differences of color concepts in Uzbek and English literary thinking are demonstrated through comparative analysis.

Key words: *color component, linguopragmatics, literary text, pragmatic meaning, semantics, emotional expressiveness, symbolism, metaphor, color concept.*

Kirish. Tilshunoslikda rang tushunchasi inson tafakkuri va madaniy qarashlarini ifodalovchi muhim semantik kategoriya sifatida o'rganiladi. Rang birliklari nafaqat predmet va hodisalarning tashqi belgisini bildiradi, balki insonning hissiyoti, ruhiyati va kommunikativ maqsadlarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois rang komponentli birliklar semantika, pragmatika va lingvomadaniyatshunoslik doirasida alohida tadqiq etiladi.

Amerikalik olimlar Brent Berlin va Paul Kay rang terminologiyasining universal xususiyatga ega ekanligini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildiradi: "Color terminology evolves according to a universal evolutionary sequence" [1]. Mazkur qarash rang tushunchasining inson tafakkuri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolada rang komponentli birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari badiiy matn asosida amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Rang komponentli birliklarning amaliy tahlili

"Green light" birikmasining pragmatik talqini.

"The Great Gatsby" asarida yashil rang ("green") alohida ramziy va pragmatik ma'no kasb etadi. Quyidagi parcha bunga yaqqol misol bo'la oladi:

"He stretched out his arms toward the dark water in a curious way... and distinguished nothing except a single green light." [6] - (*"U qo'llarini qorong'i suv tomonga g'alati bir tarzda cho'zdi... va faqatgina bitta yashil chiroqni ajrata oldi."*)

Mazkur parchada "green light" birikmasi oddiy rang ifodasi sifatida emas, balki Gatsby orzularining timsoli

sifatida qo'llangan. Yashil rang pragmatik jihatdan umid, kelajak va erishib bo'lmaydigan ideallik ma'nolarini anglatadi. (1-jadval)

Rang birikmasi	Semantik ma'nosi	Pragmatik vazifasi	Emotsional ta'siri
Green light	Yashil chiroq	Umid va orzuni ifodalash	Intilish va sog'inchi hissini uyg'otadi

1-jadval

Mazkur rang komponenti kitobxon ongida kuchli assotsiativ ma'no hosil qilib, asarning asosiy g'oyasini ochishga xizmat qilgan.

“Dark water” birikmasining emotsional xususiyati

Asarda “dark water” birikmasi ham muhim pragmatik vosita sifatida qo'llangan:

“He stretched out his arms toward the dark water...” [6]

Bu yerda “dark” komponenti mavhumlik, qo'rquv va ichki yolg'izlikni ifodalaydi. Muallif qorong'ilik obrazi orqali qahramonning ruhiy holatini ochib beradi. (2-jadval).

Rang komponenti	Kontekstual ma'nosi	Pragmatik funksiyasi
Dark	Qorong'ilik, mavhumlik	Ruhiy bosim va yolg'izlikni ifodalash

2-jadval.

“Oppoq ro'mol” birikmasining milliy-madaniy talqini

O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” romanida rang tasvirlari milliy qadriyat va samimiyatni ifodalashda muhim vosita sifatida qo'llanadi. Shu o'rinda quyida keltirilgan misolga e'tiborimizni qaratsak:

“Oppoq ro'mol o'ragan onam eshik oldida uzoq kutib turardi” [5].

Ushbu yuqorida keltirib o'tilgan jumlada oq rangning o'zbek ayoli timsolidagi ramziy ma'nosi yaqqol ko'rinadi.

1. Milliy qadriyat ramzi. Oq ro'mol – o'zbek ayolining ibo, hayo va sadoqatini ifodalovchi milliy atribut. Bu tasvir orqali yozuvchi xalqona qadriyatlarni badiiy matnga singdiradi. Oq rang milliy mentalitetda poklik, halollik va mehr timsoli sifatida qabul qilinadi.

2. Samimiyat va mehr ramzi. Onaning “oppoq ro'mol”da tasvirlanishi – uning mehribon, samimiy va beg'ubor tabiatini ko'rsatadi. Bu tasvir o'quvchida ona siymosiga nisbatan iliq tuyg'ular uyg'otadi.

3. Emotsional-ekspressivlik. “Oq” o'rniga “oppoq” shaklining qo'llanishi matnga emotsional kuch beradi.

Bu orttirma shakl o'quvchining tasavvurida ro'molning yanada yorqin, beg'ubor tasvirini uyg'otadi. Shunday qilib, yozuvchi oddiy rangni kuchaytirib, uni ruhiy ta'sirchanlik darajasiga olib chiqadi.

4. Badiiy ramz sifatida oq rang. Oq rang Hoshimovda faqat tashqi tasvir emas, balki ruhiy holat va milliy qadriyatlarning badiiy ramzidir. Onaning oppoq ro'moli – o'zbek ayolining mehribonligi, oilaga sadoqati va pokiza qalbining timsoli sifatida o'quvchi ongida mustahkam o'rnashadi.

Mazkur parcha orqali yozuvchi oq rangni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, uni samimiyat, ibo va mehr ramzi sifatida talqin qiladi. “Oppoq” shaklining qo'llanishi esa tasvirning emotsional-ekspressiv kuchini oshirib, o'quvchida ona siymosiga nisbatan chuqur hurmat va ilqlik tuyg'usini uyg'otadi. (3-jadval)

Rang birikmasi	Milliy-madaniy ma'nosi	Pragmatik vazifasi
Oppoq ro'mol	Poklik, mehr, samimiyat	Onalik obrazini iliq tasvirlash

3-jadval.

Bu birlik kitobxon ongida ilqlik va mehr hissini uyg'otadi.

“Qora tun” birikmasining uslubiy xususiyati

Asarda qora rang salbiy ruhiy fon yaratishda faol qo'llangan:

“Qora tun qishloq ustiga sekin cho'kardi.” [5]

Yuqorida keltirilgan parcha yuzasidan “qora tun” birikmasining ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

1. Qora rangning ramziy ma'nosi. Qora rang o'zbek adabiyotida ko'pincha qorong'ilik, xavotir, tashvish va dramatismni ifodalaydi. Bu tasvir voqealarning ruhiy fonini belgilab, o'quvchini ichki bezovtalikka tayyorlaydi.

2. Emotsional ta'sirchanlik. “Qora tun” birikmasi matnga ruhiy og'irlik va dramatik kuch beradi. O'quvchi tasvirni o'qiganda, voqealar rivojida xavotir va kutilmagan hodisalarga tayyorlanadi. Bu esa badiiy matnning ta'sirchanligini oshiradi.

3. Dramatismni kuchaytirish. Tun tasviri voqealarning murakkabligi va keskinligini ko'rsatadi. “Sekin cho'kardi” iborasi esa voqealarning asta-sekinlik bilan, lekin muqarrar tarzda og'irlikka tomon ketayotganini bildiradi.

4. Milliy badiiy tafakkurda qora rang. O'zbek xalq og'zaki ijodida qora rang ko'pincha og'irlik, g'am, tashvish ramzi sifatida qo'llanadi. Hoshimov bu an'anaviy ramzni zamonaviy badiiy matnga singdirib, o'quvchida milliy ruhiy tajribani uyg'otadi. (4-jadval)

Rang komponenti	Ramziy ma'nosi	Uslubiy vazifasi
Qora	Qayg'u, mavhumlik	Dramatik kayfiyat yaratish

4-jadval

Rang birliklarining qiyosiy tahlili. O'zbek va ingliz badiiy tafakkurida rang birliklari turlicha ramziy ma'noga ega bo'lib, ayrim hollarda ular o'xshash pragmatik vazifani bajaradi, ba'zi hollarda esa mutlaqo farqli talqin qilinadi. Quyida o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilamiz.

1. O'xshashliklar

a) Oq rang

- O'zbek adabiyotida: "Oppoq ro'mol" – ibo, poklik, samimiyat.

- Ingliz adabiyotida (The Great Gatsby): Daisy oq libosda – beg'uborlik pardasi.

Har ikkala madaniyatda oq rang poklik va beg'uborlik ramzi sifatida ishlatiladi, ammo ingliz matnida bu ko'proq yuzaki va soxta poklikni anglatadi.

b) Yashil rang

- O'zbek adabiyotida: "Rayhonlar isi" – hayotiylik, tabiat, baraka.

- Ingliz adabiyotida: Gatsby'ning "green light"i – orzu, umid, pul ramzi.

Ikkala adabiyotda yashil rang umid va hayotiy kuchni bildiradi, lekin ingliz matnida bu orzularning aldovchi va yetishib bo'lmaydigan tabiatini ham ifodalaydi.

2. Farqliliklar

c) Qora rang

- O'zbek adabiyotida: "Qora tun" – tashvish, ichki xavotir, dramatism.

- Ingliz adabiyotida: "Valley of Ashes" kulrang-qora tasvirda – jamiyat chirishi, umidsizlik.

O'zbek matnida qora rang ko'proq shaxsiy ruhiy holatni ifodalasa, ingliz matnida u ijtimoiy tanazzul ramzi sifatida talqin qilinadi.

d) Sariq rang

- O'zbek adabiyotida kam qo'llanadi, ko'proq quvonch va hosildorlik ramzi sifatida.

- Ingliz adabiyotida: "Yellow cocktail music" – yolg'on shodlik, tashqi hashamat.

Demak, sariq rang o'zbek matnida hayotiy quvonch, ingliz matnida esa yolg'on va yuzaki baxt ramzi sifatida talqin qilinadi. (5-jadval)

O'zbek va ingliz tilidagi rang birliklarining qiyosiy talqini

Rang	O'zbek adabiyoti	Ingliz adabiyoti
Oq	Oppoq ro'mol – ibo, poklik	Daisy oq libos – soxta poklik
Yashil	Rayhonlar – hayotiylik, baraka	Green light – orzu, pul, umid
Qora	Qora tun – tashvish, dramatism	Valley of Ashes – jamiyat chirishi
Sariq	Hosildorlik, quvonch	Yellow music – yolg'on shodlik

5-jadval

Jadvaldan ko'rinadiki, rang birliklari turli xalqlarda o'xshash semantik asosga ega bo'lsa-da, ularning pragmatik va madaniy talqinida farqlar mavjud.

Xulosa. Rang komponentli birliklar badiiy matnning eng muhim lingvopragmatik vositalaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat predmet va hodisalarning tashqi ko'rinishini ifodalashga xizmat qiladi, balki muallifning estetik niyati, badiiy maqsadi hamda qahramonlarning ichki ruhiy holatini ochib berishda ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan rang birliklari til tizimining semantik, pragmatik va stilistik qatlamlari o'rtasida bog'lovchi vazifani bajaradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rang komponentlari badiiy matnda ko'pincha ko'chma va ramziy ma'noda qo'llanadi. Ular orqali muallif oddiy tasvirni emas, balki chuqur ma'noli obrazlarni yaratadi. Masalan, yashil rang umid, orzu va kelajakka intilish timsoli sifatida namoyon bo'lsa, oq rang poklik, beg'uborlik va insoniy mehnatni ifodalaydi. Qora rang esa ko'pincha salbiy emotsional fon yaratib, qayg'u, iztirob va ruhiy og'irlikni aks ettiradi.

O'zbek va ingliz badiiy matnlari qiyosiy tahlili natijasida shuni aytish mumkinki, rang birliklari universal semantik asosga ega bo'lsa-da, ularning pragmatik talqini turli madaniyatlarda farqlanadi. Ingliz tilida ranglar ko'proq individual psixologik holat va metaforik ma'nolarni ifodalashda faol qo'llansa, o'zbek tilida ular milliy-madaniy qadriyatlar, an'anaviy obrazlar va xalq tafakkuri bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, rang komponentli birliklar badiiy matnning emotsional ta'sir kuchini oshiruvchi, obrazlilikni kuchaytiruvchi va kitobxon ongida chuqur assotsiativ tasavvurlar hosil qiluvchi muhim lingvopragmatik vositadir. Ularni chuqur o'rganish badiiy matnning ichki mazmunini, muallif uslubini hamda milliy va madaniy tafakkur xususiyatlarini yanada kengroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basic Color Terms. – Berkeley: University of California Press, 1969.
2. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Problems of Russian Stylistics. – Moscow: Vysshaya shkola, 1981.
5. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2018.
6. The Great Gatsby. – New York: Charles Scribner's Sons, 1925.

Zarif BEKMURADOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Kechki ta'lim fakulteti dekan o'rinbosari

RATSIONAL TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalarda ratsional turmush tarzini shakllantirishning samarali pedagogik metodlari, ta'lim jarayoniga sog'lom turmush tarzi tamoyillarini integratsiya qilish yo'llari va kutilayotgan natijalar ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ratsional turmush tarzi, "Gomeostaz barqarorligi", rehabilitatsiya, psixofizik holat*

Annotation: this article highlights the effective pedagogical methods for developing a rational lifestyle among students, ways of integrating healthy lifestyle principles into the educational process, and the expected outcomes from a scientific and theoretical perspective.

Key words: *rational lifestyle, "homeostasis stability", rehabilitation, psychophysical state.*

Аннотация: в данной статье научно-теоретически освещены эффективные педагогические методы формирования рационального образа жизни у студентов, пути интеграции принципов здорового образа жизни в образовательный процесс и ожидаемые результаты.

Ключевые слова: *рациональный образ жизни, «стабильность гомеостаза», реабилитация, психофизическое состояние.*

Oliy ta'lim bosqichidagi talabalik davri inson hayotidagi eng dinamik va shu bilan birga, salomatlik uchun xatari davrlardan biri hisoblanadi. Akademik yuklamalarning ortishi, uyqu rejimining buzilishi va noto'g'ri ovqatlanish talabalarning psixofizik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida "Ratsional turmush tarzi" fanini shunchaki nazariy ma'lumot sifatida emas, balki shaxsiy hayotiy strategiya sifatida o'qitish dolzarb masaladir.

Ratsional turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab bugungi kungacha jahon ilm-fanining, xususan, tibbiyot, pedagogika, psixologiya va valeologiya (salomatlik haqidagi fan) sohalarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar nafaqat nazariy xulosalar, balki yirik populyatsiyalar ustida o'tkazilgan ko'p yillik empirik kuzatuvlarga asoslanadi. Ilmiy izlanishlarning eng yirik yo'nalishlaridan biri "Sirkad ritmlar va ularning inson fiziologiyasiga ta'siri" bilan bog'liq. 2017-yilda J. Xoll, M. Rosbash va M. Yangning sirkad ritmlarni boshqaruvchi molekulyar mexanizmlarni kashf etgani uchun Nobel mukofotiga loyiq ko'rilishi bu sohadagi eng yuqori ilmiy e'tirof bo'ldi. Ularning izlanishlari shuni isbotladiki, insonning kun tartibi (uyqu, ovqatlanish, faollik) o'zining ichki biologik soati bilan zid kelishi metabolik kasalliklar, depressiya va kognitiv funksiyalarning pasayishiga to'g'ridan to'g'ri sabab bo'ladi. Bu tadqiqot talabalar uchun ratsional kun tartibini ishlab chiqishning fundamenti bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, "O'z-o'zini samarali boshqarish" (Self-regulation) va "Odatlarni shakllantirish neyrobiologiyasi" bo'yicha keng ko'lami tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, London universiteti kolleji (UCL) tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan izlanishlar yangi ratsional odatning (masalan, tonggi jismoniy mashqlar yoki sog'lom ovqatlanish)

avtomatizm darajasiga ko'tarilishi uchun o'rtacha 66 kun kerakligini ilmiy isbotlab berdi. Bu ma'lumot oliy ta'limda metodikani rejalashtirishda vaqt me'yorlarini belgilash uchun muhim asosdir. Shuningdek, nutritsiologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar, xususan, "Glikemik indeks" va "Mikrobioma-miya o'qi" tushunchalarining rivojlanishi ratsional ovqatlanish metodikasini tubdan o'zgartirdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ratsionda murakkab uglevodlarning ustunligi va qayta ishlangan shakarlarning kamligi talabalarning xotira (mnemonic) qobiliyatini 20–30% ga oshirishi mumkin. Dunyo miqyosidagi yirik kohort tadqiqotlari (masalan, "Framingham Heart Study" yoki "Nurses' Health Study") turmush tarzining o'zgarishi (semirishni nazorat qilish, harakat va uyqu) surunkali kasalliklar xavfini 80% gacha kamaytirishini statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlagan.

Ratsional turmush tarzini shakllantirishning ilmiy-pedagogik metodikasi murakkab, ko'p qirrali va tizimli jarayon bo'lib, u nafaqat tibbiy-biologik bilimlarni, balki psixologik-pedagogik ta'sir choralarining yaxlit majmuasini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim tizimida talabalarning hayotiy faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish ularning nafaqat jismoniy salomatligini, balki kognitiv funksiyalari va professional layoqatini belgilovchi asosiy omil sanaladi. Ratsional turmush tarzi metodikasining markazida inson organizmining sirkad ritmlari, metabolik jarayonlari va tashqi muhitning antropogen omillari o'rtasidagi dinamik muvozanatni ta'minlash turadi. Ushbu metodikani talabalarga o'qitishda "Gomeostaz barqarorligi" va "Sog'lomlashtirish texnologiyalari" tushunchalarini amaliyotga tatbiq etish strategik maqsad hisoblanadi.

Metodikaning birinchi va eng fundamental qismi – "Antropometrik va funksional o'z-o'zini tashxislash" metodidir. Bu metod talabaga o'z organizmining real holatini ilmiy parametrlar asosida ko'rish imkonini beradi. Talabalar

tana vazni indeksi (TVI), arterial bosim dinamikasi, o'pka hayotiy sig'imi va mushak tonusi kabi ko'rsatkichlarni muntazam o'lchash orqali o'zlarining "salomatlik pasporti"ni yaratadilar. Bu jarayon shunchaki raqamlar yig'indisi emas, balki organizmning adaptiv imkoniyatlarini baholash usulidir. Masalan, TVI ko'rsatkichining me'yordan og'ishi talabada modda almashinuvi va yurak-qon tomir tizimidagi patologik o'zgarishlarning ehtimoliy xavfini anglatadi. Ushbu metod orqali talaba o'z hayot tarzidagi xatolarni vizual va matematik shaklda ko'ra boshlaydi, bu esa unda ratsional odatlarni shakllantirish uchun kuchli ichki motivatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – "Nutritsiologik korreksiya va energetik balansni boshqarish" metodikasi bo'lib, u talabalarning ovqatlanish madaniyatini tubdan qayta qurishga qaratilgan. Talabalarga taomlanishning bioximiyaviy asoslari, ya'ni oqsil, yog' va uglevodlarning organizmdagi metabolik yo'llari batafsil o'rgatiladi. Ratsional ovqatlanish metodikasi nafaqat kaloriya hisoblashni, balki mahsulotlarning glikemik indeksi va ularning neyromediatorlar sinteziga ta'sirini tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, "Nutrition kundalik" metodi orqali talaba bir hafta davomida iste'mol qilgan mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini tahlil qiladi. Bunda talabaga oziq-ovqat piramidasi asosida ratsionni optimallashtirish, trans-yog'lar va rafinadlangan shakarlarning miya faoliyatiga salbiy ta'sirini ilmiy dalillar bilan tushuntirish metodik yondashuvning asosi bo'ladi.

Uchinchi metod – "Sirkad ritmlarni optimallashtirish va uyqu gigiyenasi" metodiksidir. Zamonaviy talaba duch keladigan eng katta muammo – bu xronobiologik buzilishlardir. Ushbu metodika doirasida talabalarga melatonin gormoni sintezi va uning kognitiv jarayonlardagi o'rni ilmiy jihatdan tushuntiriladi. "Kognitiv-bixevioral uyqu terapiyasi" elementlaridan foydalangan holda, talabalarga uyqu vaqtini sirkad ritmlarga muvofiqlashtirish o'rgatiladi. Bu metodika talabaning kunlik ish qobiliyatining eng yuqori nuqtasini (pik holatini) aniqlashga va o'quv yuklamasini aynan shu vaqtga taqsimlashga yordam beradi. Natijada talaba kam energiya sarflab, ko'proq ma'lumotni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi, bu esa surunkali charchoq sindromining oldini oladi.

To'rtinchi yo'nalish – "Dinamik jismoniy reabilitatsiya va gipodinamiyani bartaraf etish" metodidir. Bu metod shunchaki sport bilan shug'ullanish emas, balki jismoniy

yuklamani individual fiziologik ko'rsatkichlar asosida dozalashtirishni anglatadi. Talabalarga "Kardio-metodik monitoring" usuli o'rgatiladi, ya'ni mashg'ulot paytida pulсни nazorat qilish va aerob hamda anaerob yuklamalarning farqini anglash ko'nikmasi beriladi. Ushbu metodikada "Interval mashg'ulotlar" va "Pliometrik elementlar" kabi zamonaviy sport usullarini kundalik hayotga integratsiya qilish samarali natija beradi. Jismoniy faollik metodikasi talabalarda stress gormoni – kortizol darajasini pasaytirish va baxt gormoni – endorfinlar sintezini stimullash orqali psixologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Beshinchi va yakuniy metodik bosqich – "Psixogigiyena va emotsional menejment" tizimidir. Talabalik davridagi yuqori intellektual yuklama ko'pincha "kognitiv disonans" va "emotsional yonish"ga olib keladi. Ushbu metodika doirasida talabalarga autogen mashg'ulotlar, meditatif relaksatsiya va neyropsixologik mashqlar o'rgatiladi. Stressni boshqarishning "Kognitiv qayta baholash" metodi talabaga qiyin vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash va konstruktiv qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa ratsional turmush tarzining nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-ruhiy poydevorini mustahkamlaydi.

Oliy ta'lim bosqichidagi talabalik davri inson hayotidagi eng dinamik va shu bilan birga, salomatlik uchun xatarli davrlardan biri hisoblanadi. Akademik yuklamalarning ortishi, uyqu rejimining buzilishi va noto'g'ri ovqatlanish talabalarning psixofizik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida "Ratsional turmush tarzi" fanini shunchaki nazariy ma'lumot sifatida emas, balki shaxsiy hayotiy strategiya sifatida o'qitish dolzarb masaladir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu metodikalarning barchasi birgalikda shaxsning "Hayotiy faoliyat xavfsizligi va "Sog'liqni saqlash kompetensiyasi"ni shakllantiradi. Pedagogik jarayonda ushbu metodlarni qo'llashda individual yondashuv tamoyili ustuvor bo'lishi lozim. Talabalarga ratsional turmush tarzini o'qitish – bu ularga hayot davomida asqotadigan eng muhim texnologiyani, ya'ni o'z organizmini boshqarish san'atini berishdir. Faqatgina fanlararo integratsiya, zamonaviy axborot texnologiyalari va amaliy-metodik mashg'ulotlar uyg'unligidagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Ratsional turmush tarzi shunchaki moda yoki vaqtinchalik intilish emas, balki shaxsning ongli tanlovi va uning jamiyatdagi samarali faoliyatining fundamental negizidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Walker, M. (2017). *Why We Sleep: Unlocking the Power of Sleep and Dreams*. Simon & Schuster.
2. Lally, P., van Jaarsveld, C. H., Potts, H. W., & Wardle, J. (2010). How are habits formed: Modelling habit formation in the real world. *European Journal of Social Psychology*.
3. Willett, W. C., & Stampfer, M. J. (2013). Current evidence on healthy eating. *Annual Review of Public Health*.
4. Selye, H. (1976). *The Stress of Life*. McGraw-Hill Education.
5. Shayxova, G. I. (2023). *Sog'lom ovqatlanish – salomatlik mezoni*. – Toshkent: "O'zbekiston".

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

AXBOROTNOMASI

**Ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy va
siyosiy-huquqiy jurnal**

№ 2 (18) 2026

